

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**Qo'lyozma huquqida
UDK: 373-331**

UMMATOVA SITORA SHAVKATULLOYEVNA

**MTM TARBIYALANUVCHILARIDA IQTISODIY TASAVVUR VA
TUSHUNCHALARNI TARKIB TOPTIRISHNING PEDAGOGIK
ASOSLARI
(TAYYORLOV GURUHLARI MISOLIDA)**

**Magistr
akademik darajasini olish uchun yozilgan
DISSERTATSIYASI**

Ish ko'rib chiqildi va himoyaga
ruxsat berildi.

Pedagogika kafedrasini mudiri
dots.K.Hasanova-----

“---”-----2017 y.

Ilmiy rahbar:

p.f.d., prof. N.Shodiyev

M.O'.

SAMARQAND-2017

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I.Bob. Maktabgacha ta'lim muassasalari tayyorlov guruhi bolalarida iqtisodiy tasavvur va tushunchalarni tarkib topdirish asoslari.....	8
1.1. Bog'cha tayyorlov guruhi bolalarida iqtisodiy tasavvur va tushunchalarni tarkib toptirish pedagogik muammo sifatida.....	8.
1.2. Movaraunnahrlik mutafakkirlar asarlarida iqtisodiy ta'lim – tarbiya masalalarini yoritilishi.....	22
1.3. Yosh avlodga iqtisodiy ta'lim-tarbiyalash bo'yicha izlanishlarning hozirgi holati.....	30
Birinchi bob yuzasidan xulosa.....	34
II.Bob. MTM tayyorlov guruhi bolalarida iqtisodiy tasavvur va tushunchalarni tarbiyalashning mazmuni, shakl, metod va vositalari.....	35
2.1 MTM da bolalarni ilk bor iqtisodiy tushunchalar mazmuni bilan tanishtirish.....	35
2.2 Nutq o'stirish tevarak atrof kattalar mehnati bilan tanishtirish jarayonida bolalarda tasavvur va tushunchalarni tarkib topdirish.....	46
2.3 O'zida mehnat mazmuni va iqtisodiy tushunchalarni ifoda etgan xalq o'yinlari, ekskursiyalar.....	54
Ikkinchi bob yuzasidan xulosa.....	60
III.Bob. MTM tayyorlov guruhi bolalarida iqtisodiy tasavvur va tushunchalarni tarkib toptirish bo'yicha ilmiy - tadqiqot ishlarni tajribada sinash.....	62
3.1 Ilmiy-tadqiqot ishchi dasturi va metodikasi ishlab chiqish.....	62
3.2 Tajriba-sinov ishini samaradorligini o'rganish.....	66
Uchinchi bob yuzasidan xulosa.....	70
Umumiy xulosa va tavsiyalar.....	72
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.....	74
Ilovalar.....	78

KIRISH

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan chuqur iqtisodiy – ijtimoiy islohatlar natijasida jamiyatimiz taraqqiyoti asoslari va milliy mustaqilligimiz poydevori tobora mustahkamlanib bormoqda. Shu munosabat bilan milliy iqtisodiyotimizning o'ziga hos jihatlarni o'rganib borish muhimdir. Bozor iqtisodiyoti hayotimizda tobora keng ko'lam kasb etayotgan hozirgi sharoitga har bir kichik mutahassis kelgusi mehnat faoliyatida ko'p qirrali bilimga, chuqur mushohada va mulohaza asosida qaror qabul qila olishi, o'z kasbini puhta egallagan bo'lishi shart. Bu esa o'z navbatida, mustaqil davlatimiz kelajagi bo'lmish yosh avlodni tarbiyalashda va uning barkamol shaxs bo'lib shakllanishida maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyachi- pedagoglari, tadqiqotchi pedagog olimlar zimmasiga o'ta ma'suliyatli vazifalarni yuklaydi.

Respublikamiz Birinchi Prezidenti I.A.Karimov O'zbekiston Oliy Majlisi IV sesiyasida so'zlangan nutqida "... biz shunday ma'suliyatli o'tish davrini o'tmoqdamizki, juda qisqa muddatlarda rivojlangan mamlakatlar safiga qo'shilib olishimiz kerak. Bu **tarixiy zaruratdir. Ijtimoiy – iqtisodiy taraqqiyot esa ko'p jihatdan odamlarning iqtisodiyot ilmi bilan qurollanishiga, iqtisodiy idrok kuchiga ega bo'lishlariga bog'lig' bo'lib qoldi**"

Iqtisodiy tarbiyaga oid tushunchalar har bir mutahassis – tijoratchi, ilmiy hodim, pedagog, chilangar, shifokor va boshqalarning kundalik amaliy faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur muammoni samarali hal qilish ta'lim muassasalari, hususan maktabgacha ta'lim muassasidan boshlab pedagogik izlanishlarda iqtisodiy – ta'lim - tarbiya berishning zamonaviy yo'nalishlarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturining "3.3.2. "Uzluksiz ta'limni isloh qilish yo'nalishlari", deb nomlangan bo'limida "... ta'limning barcha darajalarida ta'lim oluvchilarning... iqtisodiy... ta'limi hamda ta'limi hamda tarbiyasini takomillashtirish" alohida ta'kidlangan [3,45].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari

to'g'risidagi" gi Qarorida "Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ... bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ... bolalarni har tomonlama intellektual, ahloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart – sharoitlar yaratish..." ga alohida etibor berilganligi ushbu sohadagi ilmiy-tadqiqotlarni yanada jonlantirishni ko'zda tutadi. Shu asnoda maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyalanuvchilariga iqtisodiy ta'lim - tarbiya berish, ularda iqtisodga oid ayrim materiallar to'g'risida tasavvur va tushunchalarni shakllantirish muammosini pedagogika nuqtai nazardan tadqiq qilish zaruriyati tadqiqotimiz mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Keyingi paytlarda iqtisodiy ta'lim - tarbiya masalalari bilan nafaqat iqtisodchiga, sotsiolog, faylasuflar, balki pedagog va psixolog olimlar ham keng ravishda shug'inlanmoqdalar. Jumladan, sobiq SSSR da rossiyalik V.K.Rozov, ota- bola Shimyakenlar, Yu.K.Vasilev, I.A.Sasova, A.S.Amend, o'zbekistonlik A.I.Norboyeva, Z.A.Valiyeva, H.R.Matyakubov va boshqalar boshlang'ich, o'rta sinf o'quvchilariga iqtisodiy ta'lim – tarbiya berish muammolarini tadqiq qilganlar.

Uzluksiz ta'lim tizimini yosh avlodga iqtisodiy ta'lim – tarbiya berish mustaqillik yillarida yangi bosqichga ko'tarildi desak hato qilmagan bo'lamiz. Jumladan, H.Umarova, N.Kamolova, X.Xudoyqulov, S.Boboqulov, B.Sobirov yosh avlodda iqtisodiy bilim, ko'nikma va malakalar hosil qilinishi shart- sharoitlarini o'rganish barobarida iqtisodiy ta'lim –tarbiya muammolari bo'yicha tadqiqot ishlari olib bormoqdalar.

Shunisi e'tiborga molikki, keyingi yillarda maktab, akademik litsey, kasb – hunar kollejlari hamda maktabgacha ta'lim muassasalari pedagog amaliyotchilari mamlakatimizning nufuzli jurnallarida, respublika ko'lamida o'tkazilayotgan konfrensiyalarda yosh avlodni iqtisodiy tarbiyalash muammosi bilan bog'liq maqolalar, ilmiy maruzalarni chop etish bir muncha jadallashdi. Ular jumlasiga G'.Nabiyev, M.Raimova (Qarshi), N.Erkaboyeva (Farg'ona), G.Ishmurodova (Toshkent), N.Shodiyev (Samarqand) va h.k.

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlari M.Abdalimov, N.Beknazarov, M.Zaynuddinov, U.Murakayev, A.O'lmasov va boshqalar ham yosh avlodni iqtisodiy tarbiyalash muammosiga o'zlarining munosib hissalarini qo'shmoqdalar.

Yuqorida bayon qilinganlarga asoslanib magistrlik dissertatsiyamiz mavzusini "MTM tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarida iqtisodiy tasavvur va tushunchalarni tarkib toptirishning pedagogik asoslari" deb shakllantirdik.

Dissertatsiya ishining ilmiy – tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi kadrlar tayyorlash milliy dasturining "4.4. manaviy – axloqiy tarbiya va ma'rifiy ishlar" bo'limiga muvofiq SamDU pedagogika kafedrasida shakllangan "Yosh avlodni ma'naviy tarbiyalash va unga bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash" kompleks ilmiy – tadqiqot mavzusi rejasiga mos keladi.

Tadqiqot maqsadi: Maktabgacha ta'lim muassasasi tayyorlov guruhi bolalarida iqtisodiy tasavvur va tushunchalarni tarbiyalashning samarali yo'llarni nomoyon qilish hamda tavsiyalar ishlab chiqishda iborat.

Tadqiqot ob'yekti: MTM tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarida iqtisodiy tasavvur va tushunchalarni tarbiyalash jarayoni hisoblanadi.

Tadqiqot predmeti: MTM bolalarida iqtisodiy tasavvur va tushunchalarni shakllantirishning mazmuni, shakl, metod va vositalari.

Tadqiqotning ilmiy farazi: MTM da katta guruh yoshidagi bolalarda iqtisodiy tasavvur va tushunchalarni shakllantirish, agar:

- MTM lari katta guruh yoshidagi bolalarda iqtisodiy tasavvur va tushunchalarni shakllantirish "Bolajon" tayanch dasturi asosida uzluksiz tashkil etilsa;

- MTM lari katta guruh yoshidagi bolalarda iqtisodiy qadriyatlarga qiziqish rivojlantirilsa;

- Tarbiyalanuvchilarda shakllantiriladigan iqtisodiy tasavvur va tushunchalar tarixiy qadriyatlarga tayangan holda mahalliy materallar asosida bolalarning yosh hususiyatlari hisobga olinsa, uning samaradorligi oshadi.

Tadqiqot maqsadlari:

- Pedagogik tahlil;
- Katta guruh yoshidagi bolalarda iqtisodiy tasavvur va tushunchalarni tarbiyalashni pedagogik muammo sifatida asoslash;
- Katta guruh yoshidagi bolalarda iqtisodiy tasavvur va tushunchalarni tarbiyalashning yo'nalishlarini aniqlash;
- Pedagogik tajriba;
- Matematik statistika asosida olingan natijalarni umumlashtirish.

Tadqiqotning metodologik asosi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Ta'lim to'g'risida" gi Qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" , O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Krimovning asarlarida ilgari surilgan iqtisodiy ta'lim – tarbiyaga doir g'oyalar , "2017-2021- yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida" gi Prezident Shavkat Mirziyoyevning Qarori, "Bolajon" tayanch dasturi, sharq mutaffakkirlarining iqtisodiy ta'lim – tarbiyaga oid ta'limotlari.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi va nazariy ahamiyati:

- Maktabgacha ta'lim jarayonida katta guruh yoshidagi bolalarda iqtisodiy tasavvur va tushunchalarni shakllantirish muammo sifatida asoslandi;
- Katta guruh yoshidagi bolalarga iqtisodiy tushunchalarni shakllantirishning asosiy yo'nalishlari belgilandi:
- MTM ta'limi jarayonida tarbiyalanuvchilarda iqtisodiy tasavvur va tushunchalarni shakllantirish metodikasi ishlab chiqildi:
- Maktabgacha ta'lim pedagogikasi fani iqtisodiy ta'lim – tarbiyaga doir ma'lumotlar bilan boyitildi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati: Amalga oshirilgan tadqiqot natijalari MTM lari ish faoliyatida o'z aksini topdi. MTM lari katta guruhidagi bolalarda iqtisodiy tasavvur va tushunchalarni shakllantirishning mazmuni, shakl va metodlaridan tarbiyachi - pedagoglar foydalanishlari mumkin.

Ilmiy - tadqiqot ishimiz materiallari asosida "Bolajon" tayanch dasturi, qo'llanmalarni tuzish va ularni takomillashtirishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliyotga tadbiiq etilishi: izlanishimizdan olingan natijalar Samarqand shahrida joylashgan 62-sonli MTM lari faoliyatiga tadbiiq etildi.

Magistrlik dissertatsiya ishining mazmuni Samarqand davlat chet tillari instituti bazasida o'tkazilgan "XXI asr intellektual avlod asri" Respublika ilmiy amaliy anjumani materiallari mazmunida chop etildi. Shuningdek, tadqiqot natijalariga asoslanib 2016-yilda 3 bosma taboqdan iborat "Maktabgacha ta'lim muassasasi bolalarida iqtisodiy tarbiyani shakllantirish" mavzusida uslubiy qo'llanma nashr ettirildi.

Himoyaga olib chiqiladigan asosiy holatlar:

- MTM lari 6-7 yoshdagi bolalarda iqtisodiy tasavvur va tushunchalarni shakllantirishdolarb pedagogik muammo ekanligi.
- MTM lari ta'lim jarayonida mazkur yoshdagi bolalarda iqtisodiy tasavvur va tushunchalarni shakllantirishning asosiy yo'nalishlari;
- MTM lari ta'lim jarayonida katta guruh bolalarida iqtisodiy tasavvur va tushunchalarni shakllantirishning mazmuni, shakllari ishlab chiqildi;
- MTM lari ta'lim jarayonida katta guruh yoshidagi bolalarda iqtisodiy tasavvur va tushunchalarni shakllantirishga qaratilgan metodik tavsiyalar.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi: Izlanish natijalari bitta uslubiy qo'llanma va ilmiy – anjumanda bitta maqola e'lon qilingan.

Dissetatsiyaning tuzilishi: Magistrlik dissertatsiyamiz "Kirish", uch bob, hulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yhatidan iborat bo'lib uning umumiy hajmi 80 betni tashkil etadi.

I.BOB. Maktabgacha ta'lim muassasalari tayyorlov guruhi bolalarida iqtisodiy tasavvur va tushunchalarni tarkib topdirishning pedagogik asoslari.

1.1. Bog'cha tayyorlov guruhi bolalarida iqtisodiy tasavvur va tushunchalarni tarbiyalash – pedagogik muammo sifatida

Mamlakatimizni bosqichma – bosqich bozor iqtisodiy munosabatlarga o'tishi yosh avlodni iqtisodiy tarbiyalashni tubdan takomillashtirishni ko'zda tutib, xar bir inson hayotga yetarli darajada iqtisodiy tayyorgarlik bilan kirib kelishini taqazo etadi.

Yosh avlodni iqtisodiy tarbiyalash o'z ahamiyatiga ko'ra mehnat resurslarini oqilona taqsimlash, odamlarda mulkka egalik qilish hissini tarkib topdirish, tejamkorlik, intizom, mehnatga ongli, ijodiy yondoshishga sezilarli ta'sir ko'rsatishi lozim.

Yosh avlodni iqtisodiy tarbiyalash tizimi mazkur muammo bilan shug'illanayotgan davlat organlari, maktab, oila, mahalla, kasb – hunar kollejlari ishlab chiqarish korxonalarining faoliyatini uyg'unlashtirishi talab etadi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” da “Ta'limning barcha darajalarida ta'lim oluvchilarning... iqtisodiy... ta'limi va tarbiyasini takomillashtirish” [3.45] zarurligi kechiktirib bo'lmaydigan vazifa sifatida pedagogika fani va amaliyoti oldiga qo'yilgan.

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” qo'ygan talablarni hayotda amalga oshirish yosh avlod iqtisodiy tarbiyasini sifat jihatda yaxshilashni ko'zda tutadi. Ayni paytda yosh avlodda iqtisodiy tasavvur va tushunchalarni tarkib topdirish nazariy jixatdan ham amaliy jixatdan ham yetarli darajada olib borilmayapti va mehnat faoliyatga kirishayotgan yoshlar oldiga qo'yilgan vazifalarga javob bera olmayapti. Hozirgi kunda ham kasb – hunar kollejlarni bitirayotgan yigit va qizlarning katta qismi yetarli iqtisodiy tayyorgarliksiz, o'z imkoniyatlari va qobiliyatlarga mos kelmaydigan kasb tanlab, asosiy iqtisodiy tushunchalarni bilmasdan hayotga kirib kelmoqda.

Tayyorlov guruhi bolalarida iqtisodiy tasavvur va tushunchalarni tarkib topdirish maktabgacha ta'lim muassasasining muhim vazifalaridan biri bo'lsada, u yagona emas. Iqtisodiy tasavvur va tushunchalarni tarbiyalash bilan bir qatorda u bilan yonma – yon mehnat, ma'naviy tarbiya elementlarini tarkib topdirish ham turadi.

Shuni aytish kerakki iqtisod, iqtisodiyot yoki iqtisodiy tarbiyaga doir ko'plab ta'riflar berilgan bo'lib, ular uzoq o'tmishdan boshlangan. Jumladan, yunon olimi Giliot tomonidan kiritilgan “Iqtisodiyot tushunchasi – bu “Uy ho'jaligini boshqarish san'ati” manosini anglatgan. Keyinchalik bu tushunchaning mohiyati kengayib, o'z ma'nosini boy etib borgan. Hozirgi davr iqtisodchilari “Iqtisodiyot – bu shunday xo'jalik tizimiki, u zarur hayotiy nematlarni yaratish yo'li bilan odamlar va jamiyat ehtiyojini qondirishdir”, deb ta'rif berganlar. Shuningdek “Iqtisodiy tarbiya yosh avlodda tejamkorlik, mehnatsevarlik, tashabbuskorlik, ishbilarmonlik, iqtisodiy hisob kitob haqida fikrlashga o'rgatadi, deb ta'riflanadi.

Keyingi yillarda ilmiy – uslubiy adabiyotlarda “Iqtisodiy tushunchalar”, “Iqtisodiy madaniyat” , “Iqtisodiy bilimdonlik (Savodhonlik)” kabi atamalar ko'paymoqda. Hususan, chet el va o'zbek tillarida nashr qilingan ilmiy – uslubiy adabiyotlarda iqtisodiy tushuncha atamasiga undan ortiq hilma – xil talqinlar keltirilgan. Jumladan, V.Yasvin “Iqtisodiy tarbiya orqali ishlab chiqarishning jamiyatda tutgan o'rni, ishlab chiqarish vositalari va ishchi kuchlarining mohiyati, ular orasidagi uzviy aloqadorlikni o'rgatish, ular haqida o'quvchilarda kasbga yo'naltirishni kuchaytirish asosida bilim, ko'nikma va malakalar hosil qilinadi” , deb hisoblaydi.

Taniqli olim A.Holodovich esa “Iqtisodiy tarbiya fuqarolarning iqtisodiy tafakkurini shakllantiruvchi jarayondir”, degan fikrni olg'a suradi.

Ahmadjon Abduhalikov iqtisodiy tarbiyaga shunday ta'rif beradi: Iqtisodiy tarbiya deganda ta'lim oluvchida iqtisodiy bilim, ko'nikma va malakalar ehtiyoj, qiziqishlar va boshqa ijtimoiy – psixologik sifatlarni hamda tafakkur tarzi va

faoliyatni shakllantirish maqsadida uning shaxsiga tizimli va maqsadga qaratilgan pedagogik ta'sir jarayoni tushuniladi.

Iqtisodiy ta'lim berish yosh avlodni ijtimoiy hayotda ishtirok etishga amaliy jihatdan tayyorlashning eng to'g'ri yo'li hisoblanadi. Shu bois maktabgacha ta'lim muassasalari pedagog - tarbiyachilari jamoasi iqtisodiy ta'limning shunday tizimini vujudga keltirish kerakki, u tarbiyalanuvchining ma'naviy ijtimoiy, iqtisodiy tasavvur va tushunchalarni shakllantiruvchi vosita sifatida xizmat qilsin.

Mamlakatimiz mustaqillikga erishganligi tufayli iqtisodiyotning bozor munosabatlariga o'tilayotganligi, mulkchilikning turli shakllarini rivojlanishi halq ta'limida o'qitish mazmunini jahon talablari darajasiga olib chiqishni taqazo etmoqda.

Respublikamiz birinchi Prezidenti I.A.Krimov "O'zbekistonning o'z istiqlol va tarqqiyot yo'li" Risolasida har bir insonning, ayniqsa endigina hayotga qadam qo'yib kelayotgan yoshlarning ongiga shunday fikrni singdirish kerakki, ular o'rta qo'yilgan maqsadlarga erishish o'zlariga ya'ni bu narsa ularning sobit qadam, g'ayrat shijoatiga to'la – to'kis fidokorligiga va cheksiz mehnat sevarligiga bog'liq ekanligini ta'kidlagani bejiz emas.

Shuningdek, Islom Karimov ta'lim muassasalarida o'quv jarayoni, mazmuni, ularda o'qitiladigan fanlarning soni to'g'risida to'xtalib oliy majlisning 1997-yil 29-avgustda bo'lib o'tgan IX sessiyasida so'zlagan nutqida "... afsuski, o'quv rejalarida yoshlarga... ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy bilimlar asoslarini o'rgatadigan fanlar yetarli o'rin olgan emas. Mavjud fanlar esa tarkiba eski holida saqlanib qolmoqda. Bu esa mustaqillik va bozor iqtisodiyoti sharoitida yuzaga chiqqan davlat ehtiyojlarini qondirishga to'sqinlik qilimoqda [3,8]. Iqtisodiy ta'lim avloddan - avlodga o'tib kelayotgan qadimiy ta'lim turidir. Biz o'tmish ajdodlarimiz hayot tajribasining eng ilg'or namunalaridan oqilona foydalanib, yangi sharoitda ularni yangi mazmun bilan boy etishimiz lozim.

Tadqiqotchi Yanoushek "O'quvchilarning iqtisodiy tafakkurini, iqtisodga oid ko'nikma va malakalarini rivojlantirish uchun, jamiyatda iqtisodiy munosabatlarni keng rivojlantirish kerak. Buning uchun esa iqtisodiy tarbiyani

to'g'ri tashkillashtirish zarur" , deb alohida ta'kidlaydi . Ma'lumki, katta guruh yoshdagi MTM tarbiyalanuvchilari kundalik hayoti davomida radio eshitirishlar, teleko'rsatuvlar, multfilmlar, ota – onalari, qarindoshlari orqali juda ko'p iqtisodiy atama, tushuncha va iqtisodiy munosabatlarga duch keladilar. Bularning ko'pchiligi mazkur guruh yoshidagi bolalar uchun jumboq bo'lib qolishi tabiiy bir holdir. Shu munosabat bilan tadqiq qilayotgan muammo doirasida MTM lari ta'lim jarayonida foydalanilayotgan "Bolajon" tayanch dasturi va u asosda yaratilgan qo'llanmalar, ishlanmalar atroflicha tahlil qilindi.

Iqtisodiy tarbiya bevosita uch qisimli masala (vazifa) ni, ya'ni jamiyatning moddiy – texnika bazasini yaratish, jamiyat a'zolari o'rtasida yangi ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarni shakllantirish va jamiyat a'zolarining iqtisodiy ongliligini tarbiyalash bilan bevosita bog'langan.

Iqtisodiy tarbiya tuzulmasi komponentlaridan biri iqtisodiy tasavvur, tushuncha hisoblanadi. Ulardan ta'lim jarayonidan foydalanish ta'lim oluvchida iqtisodiy bilim, ko'nikma va malakalarni, ehtiyoji, qiziqishlarni va shaxsning iqtisodiy muhim sifatlarini shakllantirishga ko'maklashadi.

Yuqorida bayon qilinganlarga asoslanib, biz o'z oldimizga ta'lim oluvchilarda iqtisodiy tasavvur tushunchalarni tarbiyalash vazifasini qo'llaymiz.

Iqtisodiy, pedagogik, maktabgacha ta'lim yo'nalishidagi adabiyotlarni o'rganish ularni tahlil qilish shundan dalolat beradiki, katta guruh yoshidagi bolalarda iqtisodiy tasavvur va tushunchalarni shakllantirish muammosi ilmiy – pedagogik jihatdan o'z yechimini topmagan. Ayni paytda, MTM larda tarbiyalanayotgan bolalarda aqliy, axloqiy, jismoniy, huquqiy bilim bir qatorda ularda iqtisodiy tushunchalarni shakllantirish bolalarning ma'naviy rivojlanishida va barkamol bo'lishida muhim o'rin tutadi. Chunki tushuncha narsa (buyum) va hodisalarning umumiy va muhim belgilarini inson ongida yahlit aks ettiradi. Tushuncha fikrning mahsuli sifatida dunyodagi narsa va hodisalarga munosabat bildirishning shaklidir.

Mazkur iqtisodiy tushunchlar uch blokka ajratildi. Ulardan biri umumiy iqtisodiy tushuncha, kasblar va muassasa (Idora) lar bilan bog'liq iqtisodiy tushuncha va iqtisodiy faoliyat bilan bog'liq iqtisodiy tushuncha.

Tushuncha sezish, idrok, tasavvur qilish, tajribalar bilan bevosita bog'liq bo'lib inson bilimlarini rivojlatiradi. Tushuncha ilmiy tafakkurning asosiy shakli bo'lib, so'zlarda, muloqotda ifoda etiladi va mustahkamlanadi. Tushunchalar ko'p qirrali munosabatga ega bo'lib, ta'lim – tarbiya jarayonida amalga oshiriladi va ular asosida aniqlashtiriladi, umumlashtiriladi, tizimga solinadi, taqqoslanadi. Bunday fikrlar jarayonida bolalar bilimlarni o'zlashtiradilar. Tushunchalarni tekshirish asosida uning to'g'riligi yoki yolg'onligi taqqoslanadi. Tushunchalarni o'zlashtirish jarayonida bolalarning bilimlarida, hayotdagi voqe – hodisalarga bo'lgan munosabatlari kamol topadi.

Shu boisdan ham MTM lari katta guruhleri bolalarida iqtisodiy tushunchalarni shakllantirish, iqtisodiyotdagi iqtisodiy munosabatlar, jarayonlar muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bola tushunchalar orqali atrofimizda sodir bo'layotgan iqtisodiy jarayon, munosabatlarni sezadi va idrok qiladi. Tushuncha bolaning atrofidagi narsalar bilan bo'lgan faoliyati davomida tobora takomillashib boradi va bilimlarning asosini tashkil qiladi. Tushunchalar asosida bolalarda mantiqiy fikr rivojlanadi. Bilim orqali tushuncha paydo bo'ladi va tushunchalarni umumlashtirish asosida bilimlar shakllanadi.

Demak, tushuncha –bu umumiy fikrga ega bo'lishdir. Iqtisodiy tushunchalarni shakllantirish murakkab, uzoq davom etuvchi va ko'p qirrali jarayon bo'lib, u ta'lim – tarbiya jarayonining tarkibiy, ajralmas qismi bo'lgandagina samarali amalga oshishi mumkin. Bolada iqtisodiy tushunchalarni shakllantirish- bu bolada yoshiga muvofiq keluvchi tevarak atrofdagi moddiy nematlarga, buyumlarga nisbatan ehtiyotkorlik munosabatda bo'lish, inson mehnati mahsuliga, jamoatchilik mulkiga to'g'ri munosabat bo'lishini tarkib topdirish, iqtisod haqidagi bilim, ko'nikmalarga qiziqishni tarbiyalash demakdir.

Iqtisodiy tushunchalar mashg'ulot jarayonida kamol topadi. Shuning uchun tarbiyachilar tevrak atrof bilan tanishtirish jarayonida bolalarda moddiy olam

(kiyim – kechak, jixoz, oziq – ovqat) ga, yoki tabiat (jonli, jonsiz) ga, undagi o'zgarishlarga, yoki ijtimoiy voqea – hodisalar (kishilar mehnati, ularning natijasi) ga bo'lgan munosabatni faollashtiradilar. Bolalar ularni ushlaydilar ko'rib chiqadilar, quloq soladilar.

Kuzatishlarni ko'rsatishicha tayyorlov guruhi bolalarida iqtisodiy tasavvur va tushunchalarni shakllantirishda oilaning imkoniyatidan sust foydalanilmoqda. So'ralgan bolalarda 70 foizi ota – onasining qanday kasb egasi, oylik maoshining summasini, 60 foizi esa uni oziq – ovqat, kiyim – kechak va oyoq kiyimiga sarflanishini bilmaymiz deb javob bergan. Mazkur ko'rsatkichlar qishloq joylarida yanada yuqori.

Ushbu holat MTM tarbiyachi – pedagoglarining ota – onalar bilan tayyorlov guruhi bolalarida iqtisodiy tasavvur va tushunchalarni shakllantirish bo'yicha hamkorlikni yo'lga qo'ymaganligidan dalolat beradi. Bu esa tarbiyachilarda istemolchilik psixologiyasini tarkib topdirishga ko'maklashadi.

Ayni paytda ayrim yigit va qizlarning o'z bilimlari, mehnatsevarligi va erishgan yutuqlari bilan emas, balki ota – onasi puliga sotib olingan qimmatbaho narsalari bilan o'zlarini ko'z – ko'z qilishiga intilishi jamiyatda nosog'lom muhitni vujudga kelishiga sabab bo'lmoqda.

Shu bois oilada bolalarda iqtisodiy tasavvur va tushunchalarni tarkib toptirishi lozim. O'z-o'zidan ravshanki, buning uchun ota – onalarning o'zlarini iqtisodiy tayyorgarligiga bog'cha tarbiyachilarning iqtisodiy tarbiya bo'yicha malakasini oshirishga, oila, bog'cha va otalik korxonalarining o'zaro hamkorligiga erishish maqsadga muvofiq.

Maktabgacha ta'lim muassasasida tayyorlov guruhi bolalarida iqtisodiy tasavvur va tushunchalarni tarkib topdirish mazmunini, minimum iqtisodiy kategoriyalarini aniqlashni o'rganish orqali “Bolajon” namunaviy dastur va metodik qo'llanmalarga tegishli aniqlashtirishlar kiritish, tayyorlov guruhi bolalarini uchun maxsus didaktik vositalar tayyorlash jois.

MTM da anashunday ishni amalga oshishi uchun birinchi galdan tarbiyachi pedagogni bu ishga tayyorlash, malakasini oshirish zarur.

Hozirgi vaqtda MTM da tayyorlov guruhi bolalarida iqtisodiy tasavvur va tushunchalarni shakllantirishning quyidagi tizimi shakllangan.

- Mashg'ulotlar ta'limi jarayonida iqtisodiy tasavvur va tushunchalarni shakllantirish;
- Qurish – yasash (qo'l mehnati);
- Ekskursiya iqtisodiy tasavvur va tushunchalarni tarbiyalash;
- Ijtimoiy foydali mehnatda iqtisodiy tasavvur va tushunchalarni tarkib topdirish;
- Oilada iqtisodiy tasavvur va tushunchalarni shakllantirish;

O'zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” da jamiyatimizning uzluksiz ta'lim tizimiga bergan buyurtmasiga muvofiq maktabgacha ta'lim muassasalari xam mustaqil davlatimizga ijtimoiy – iqtisodiy siyosati, uning maqsad hamda vazifalari xamoxang xolda o'z faoliyatini olib borishi aloxida ta'kidlangan.

Ma'lumki, mamlakatimizda iqtisodiyotning siyosatdan ustuvor bo'lishiga aloxida e'tibor berilmoqda. O'zbekiston Respublikasi xukumati ta'lim – tarbiyani iqtisodiyot bilan chambarchas rivojlantirishga, pirovardida iqtisodning siyosaddan ustuvorligini ta'minlashga va ushbu jarayonnig tarbiyashunoslikka ta'siri masalasini o'rganishga katta axamiyat bermoqda.

Shu boisdan xam mustaqilligimizning ilk qadamlaridanoq, “O'zbekiston Respublikasining uzluksiz iqtisodiy ta'lim – tarbiya” konsepsiyasi qabul qilindi.[3].

Mazkur xujjatga muvofiq uzluksiz iqtisodiy ta'lim – tarbiya quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

I bosqich: Oila, maktabdan tashqari ta'lim. (Xar bir bosqich uchun tayyorlangan ishlanmalar).

II bosqich: Maktabgacha ta'lim-tarbiya. (Iqtisodga yo'naltirilgan o'yin mashg'ulotlari).

III bosqich: Boshlang'ich ta'lim. (Iqtisod alifbosi).

IV bosqich: Asosiy maktabda ta'limi. To'liqsiz o'rta ta'lim (Iqtisodiy tushunchalar).

V bosqich: O'rta maxsus, kasb – xunar ta'limmi. (Iqtisodiy bilim va kasb iqtisodiyoti asoslari).

VI bosqich: Oliy va o'rta maxsus ta'lim (Tarmoq iqtisodiyoti).

VII bosqich: Tarmoqlar bo'yicha malaka oshirish tizimi. (Amaliy iqtisod).

VIII bosqich: O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi, tarmoq akademiyalari, ilmiy markazlar (Iqtisodiy ta'lim bo'yicha ilmiy izlanishlar).

Uzluksiz iqtisodiy ta'lim – tarbiya Konsepsiyasi quyidagi vazifalarni o'z ichiga olladi:

- iqtisodiy ta'limning uzluksizligini ta'minlovchi bir butunlikni xosil qiluvchi xar bir bosqichning o'ziga xosligini o'rganish;

- xar bir bosqichni mustaqil maqsad va vazifalari, tashkiliy shakl, vosita, usul, metodlarini ishlab chiqish;

- bosqichlar o'rtasida ko'prik vazifasini bajaruvchi shaxsning iqtisodiy madaniyatlik darajasini ko'rsatuvchi ta'lim – tarbiya tadbirlar majmuining xususiyat, imkoniyatlarini aniqlash;

- “Labirintlar tizimi” ilmiy – uslubiy loyixani amalga oshirishdagi moddiy ta'minot.

Ushbu vazifalar bevosita uzluksiz iqtisodiy ta'lim – tarbiya konsepsiyasining ikkinchi bosqichi xisoblanadi.

“Maktabgacha ta'lim – tarbiyaning maqsad vazifalarini aniqlashga ham dahildor hisoblanadi”.

Bolalarni iqtisodiy bilim, ko'nikma va malakalarni egallashga tayyorlash.

Bu maqsadni amalga oshirish uchun maktabgacha talim yoshidagi bolalarning fikrlash doirasini kengaytirish va chuqurlashtirishga imkon beruvchi turli vazifalarni ishlab chiqish; bu vazifalarni amalga oshishiga imkon beruvchi sharoit yaratish; iqtisodiy bilimlarni egallashga zamin bo'luvchi mantiqiy – matematik fikrlashni rivojlantiruvchi o'yinlar kompleksini amalga oshirish zarur.

Ikkinchi bosqichni xayotga tadbiq etish yo'nalishlari qo'yidagilar:

MTM tarbiyalanuvchilarining iqtisodiy savodxonlik darajasi mezonlarini ishlab chiqish. Shunga ko'ra dastur bo'limlarini integresiya qilish. “Matematika –

iqtisod”, “Tarbiya – iqtisod”, “Ma’naviyat – iqtisod”, “ Xorijiy tillar – iqtisod” kabilar.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar uchun “O’yinlar labirinti” tizimini ishlab chiqish va amalda sinash.

“Tabiatdagi ta’lim” kompleks ta’limini yaratish. Bu kompleks dasturida MTM tarbiyalanuvchilariga bevosita tabiatdan o’yin tarzida tabiatda tabiiy boylik nematlarining iqtisodiy axamiyatini ko’rsatuvchi tabiiy o’yin va tabiat qo’ynidagi sog’lomlashtirish kabi tadbirlar aks etadi. Bunda xorijiy tillardan ingliz va rus tillarini o’rganish jarayonida iqtisodiy tushuncha va atamalarni ishlatishga aloxida e’tibor berish zarur.

Bolalarni yoshlik chog’idanoq tevarak atrofdagi milliy nematlarga nisbatan extiyotkorona munosabatda bo’lishga, xar qanday moddiy ne’mat inson mexnatining maxsuli ekanligini va uni asrab – avaylashga orgatib borish zarur. Bolaning jamoatchilik va shaxsiy buyumlarga bo’lgan munosabati ilk yoshlik chog’laridanoq oilada, oila azolarining shaxsiy va jamoatchilik mulkiga bo’gan munosabatidan boshlanadi. Albatta, yosh avlodining tejamkorlik, ishbilarmonlik, uddaburonlik kabi sifatlarini shakllantirmasdan turib komil shaxsni tarbiyalab bulmaydi. Chunki, aynan MTM yoshdagi bolaning inson mexnati maxsuliga, jamoatchilik mulkiga to’g’ri munosabati, uni asrab – avaylash boyitishga xissa qo’shish istagi ortadi. O’sib kelayotgan yosh avlodda bunday sifatlarini va fazilatlatlarni shakllantirish ko’p jixatdan tarbiyachining kasbiy tayyorgarligiga bog’liq.

Bozor iqtisodi sharoitda ijtimoiy faol va ijodkor shaxsni shakllantirish, tayyorlash xayotiy extiyojdir.

Jamiyatimiz xayotida sodir bo’layotgan iqtisodiy munosabatlarni anglab olish, bolalarga kelajakda mustaqil xayotga tayyor bo’lishlari uchun muximidir. Bolalarning bozor iqtisodiyoti munosabatlariga kirishishning ma’naviy – axloqiy meyorlarini singdirishda milliy va diniy qadriyatlar muxim omil bo’lib xizmat qiladi.

Bozor iqtisodiyoti munosabatlariga kirishishning muxim vazifalaridan biri – bu jamiyatning barcha a’zolarini amaliy jixatdan va oqilona tadbirkorlikka o’rgatishdan iborat. MTM tarbiyalanuvchilariga ta’lim va tarbiya berishdan bosh maqsad ularda iqtisodiy bilimdonlik, iqtisodiy ong, oqtisodiy munosabatni tarkib topdirishdan iborat.

Shu munosabat bilan O’zbekiston Respublikasi Prezidenti xuzuridagi iqtisodiy isloxot, tadbirkorlik va xorijiy sarmoyalar bo’yicha xududlararo kenggashining 1996-yil 16-martdagi “O’zbekiston Respublikasi iqtisodiy ta’limini tashkil etish va takominlashtirishning asosiy yo’nalishlari to’g’risida”gi qarorini bajarish va uzluksiz ta’limni tashkil qilish maqsadida O’zbekiston Respublikasi xalq ta’limi vazirligining 1996-yil 29-apreldagi 92- raqamli buyrug’I asosida barcha umumta’lim maktablarining 5 - 9 - sinflarida maxsus dasturlar va darsliklar asosida “Iqtisodiy ta’lim asoslari” fani kiritildi. Boshlang’ich sinflarda “Iqtisod alifbosi” matematika, alifbe, o’qish kitobi tarkibida; tayanch (5-8) sinflarda “Iqtisod saboqlari” (iqtisodga kirish) ona tili, xorijiy tillar, matematika, va geometriya fanlari tarkibiga aloxida bob va mavzular kiritish xisobiga o’rgatiladi.

Rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiy ta’lim asoslari fan sifatida maktablarda o’qitilib yaxshi natijalarga erishilayotgani ilmiy adabiyotlardan ma’lum. Chunonchi, AQSHda o’quchilarga iqtisodiy ta’lim berish bo’yicha **“Junior achievement”** (Yoshlarning yutuqlari) bo’yicha dastur mavjud bo’lib, bu dastur mingdan ortiq tadbirkor firmalar birlashmalar, xususiy, shaxsiy tadbirkorlar tomondan mablag’ bilan ta’minlanadi. Mazkur dastur asosan bir qancha yo’nalishlarda ish olib boradi va iqtisodiy ta’lim beradi. Ular jumlasiga, turli sinflar uchun iqtisodiy ta’lim mazmunini ifodalangan o’quv qo’llanmalarini chop ettirish; bolalar uchun tadbirkorlik ko’nikmalararini shakllantirishga yordam beradigan kompaniyalarni o’tkazish va xakozolarni kiritish mumkin.

Bularning barchasi tarbiyalanuvchilarga iqtisodiy formulalar ko’rinishida emas, balki xayotiy namunalar orqali iqtisodiy xodisa – jarayonlarni xis ettirish, iqtisodiy xodisalarni vujudga keltirish mexnizmi asosida amalga oshiriladi.

“Applied yeconomics” (Amaliy iqtisodiyot) ikki chorak mazmunini qamrab olgan kurs gasturlari bo’lib, u yuqori sinf o’quvchilariga iqtisodga oid bilimlar beradi. O’quvchilar **“Junior achievement”** tomonidan ishlab chiqilgan va tayyorlangan darslik masalalar to’plami xamda kompyuter ta’limotidan foydalanadi. Nazariy bilimlar amaliy tajriba, iqtisodiy o’yinlar xamda maxalliy biznesmenlarning faoliyati bilan to’ldirib boriladi.

“Prijekt business” – sinflari uchun fakultatif sinflar kursi ishlab chiqilgan. Undagi ba’zi mavzular bo’yicha amshg’ulotlarni ko’ngilli biznesmenlar o’tkazadilar.

“Business Basics” 4-5 sinf o’quvchilari uchun erkin tadbirkorlik iqtisodiyotiga va biznes olamiga kirish kursi. **“Junior achievement”** tomonidan tayyorlangan maslaxatchilar IV qisimdan iborat bo’lgan bu daturni asosiy o’quv rejasiga qo’shimcha sifatida taqdim etadilar.

“Thye yelementary shcool programm” boshlang’ich sinf o’quvchilari uchun iqtisod va biznes olamiga kirish kursi xisoblanadi. O’quvchilar turli o’yinlar, suxbat, savol-javoblar orqali iqtisodga oid bilim va ko’nikmalarni egallaydilar. Bu dastur xam asosiy o’quv rejasiga qo’shimcha sifatida taklif qilinib, maslaxatchilar xamda o’qituvchilar yordamida amalga oshiriladi.

- “JA” – bu dastur asosida tashkil qilingan o’quv jarayonida o’quvchilar darsdan tashqari vaqtlarda iqtisodga oid amaliy tajriba xosil qilishlari xamda o’z faoliyatlarini amaliy jixatdan tashkil etishlari orqali iqtisodiyotning muxim jixatlari bilan tanishadilar.

Bugungi kunda bu dasturga rivojlangan mamlakatlardan 100 dan ortiq hamda Rossiya Federatsiyasining 34 ta shaxridagi maktablarda amal qilinmoqda.

Shuningdek, AQSHda **“THYe Joint Council on yeconomic Yeducation”** (Iqtisodiy ta’limga asoslangan qo’shimcha tashkilot) notijorat, nodavlat tashkilotlari xam yaratilgan bo’lib, o’qish ularning maqsadi maktablarda iqtisodiy bilim va tarbiya berishning sifatida oshirishga qaratilgan. Ushbu tashkilotlar maktablar uchun iqtisodiy ta’lim berish bo’yicha tajriba dasturlarini ishlab chiqadilar. Ular tajribada ishtirok etayotgan maktab o’quvchilariga iqtisodiy ta’lim

berishga asoslangan zaruruy ishlanma, maslaxat, qo'llanmalar xaqida ma'lumot berish, ularni tayyorgarlikdan o'tkazish bilan shug'unlanadilar. Tajriba dasturida boshlang'ich sinov – o'quvchilarning iqtisodga oid bilim va ko'nikmalarini iqtisodiy o'yinlar orqali rivojlantirish maqsad qilib olingan.

O'quvchilarni iqtisodiy tarbiyalash bo'yicha maktab oldida turgan vazifalarni xal qilish uchun rivojlangan mamlakatlarda o'qiyuvchilarni tayyorlash, ularning iqtisodiy savodxonligini oshirish uchun kurslar pedagogika institutlarida talabalarni ishlab chiqarish amaliyoti amalga oshirilgan.

Mamlakatimizni bozor iqtisodiyoti munosabatlariga bosqichma – bosqich o'tib borish barcha mexnatkashlarning iqtisodiy savodxonligi oshirishni, iqtisodiy ta'lim – tarbiyaning rolini oshirishni taqozo etmoqda. Shu bois, xar bir mexnatkash ijtimoiy – iqtisodiy munosabatlarni baxolay olishlari, ishlab chiqarish iqtisodiyotning elementlarini o'zlashtirib olishlari, ishlab chiqarish iqtisodiyotning elementlarini o'zlashtirib olishlari, jamoaning foydasi va sarfini o'zgarish sabablarini va yo'llarini tushunishlari kerak.

Bugungi kunda xa bir oilaning xayotiga foyda, rentabillik, qo'shimcha qiymat, mexnat unumdorligi, xo'jalik xisobi, oilaviy biznes, oilaviy qudrat, fermer xo'jaligi kabi iqtisodiy tushunchalar kirib bormoqda. Xozirgi sharoitda iqtisodiy bilimlar xazinasini egallash dolzarb muammo emas, balki iqtisodiy bilimlar tizimini va shu asosida iqtisodiy tafakkur, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, xar bir kishida iqtisosiy madaniyatni, xususiy mulk egasi bo'lish xissiyotini tarkib toptirish muximdir.

Iqtisodiyot va ta'lim – tarbiya bir-biri bilan chambarchas bog'liq xolda xarakat qilish, rivojlanishi lozim. Iqtisodning o'zi nima ?

Kichik bir oila iqtisodi va davlat iqtisodi tushunchalari mavjud. Pul, mol, oila extiyojlari uchun zarur bo'lgan narsalar – bu oila iqtisodi. Oila iqtisodi mexnat bilan topilgan xalol mol-mulk xamda tejamkorlik yo'li bilan yig'ilgan narsalardan iboratdir.

Xalq ongiga singib ketgan “Iqtisod bilan ishlagan kishilar farqi bulmaslar” degan xadis bor, unga qo'yidagicha izoh beriladi. “Kirimiga qarab chiqimini tuta

bilmagan kishi bor davlatini bitirib, oxiri xorlikka tushgani xolda, kirimiga qrab chiqimini tuta bilgan kishi boy bo'lmada, o'zini faqirlikdan saqlay oladi" (yuz bir hadis - Toshkent ; Mehnat. 1991,38 – bet. Demak, iqtisodning yaxshi yoki yomonligi tejamkorlik bilan bevosita bog'liqdir.

Davlat iqtisodi juda katta muammolarni va murakkab vazifalarni o'z ichiga qamrab oladi. Shu bois Amir Temur iqtisod to'g'risida qo'yidagicha saboq beradi:

- Qaysi vazir soflik bilan vazirlik ishga kirishib, davlatning moliya mulkiya ishlarini, diyonat, sabot bilan, nafsi buzuqlik qilmay, omonatga xiyonat etmay bajarar ekan, unday vazirni eng oily martabaklarga yetkazsinlar. Qaysi vazir buzuqlik qilib, yomonlik yo'li bilan mamlakat ishlarini yurgizar ekan, ko'p o'tmay mamlakatdan xayru barokat ko'tariladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov mamlakatda iqtisodiy islohotlar o'tkazish borasida to'xtalib shunday yozdi: Biz iqtisodni xar qanday siyosiy mafkuradan ustun q'yib, shu soxada bo'lgan muammolarni xal qilib, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlayabmiz. Bugun jamiyatimizni yangilash asosini va inson uchun barcha shart-sharoit yaratayabmiz.

Bu vazifaning tub moxiyati bozor munosabatlariga o'tish, inson extiyoji va mexnat saloxiyatini ko'rsatishga imkon yaratish, boqimandalik va bu xaqdagi qarashlarni butunlay yo'qotish, respublika boyliklaridan unumli foydalanishdan iborat.

“Maktabgacha ta'lim muassasalarida iqtisodiy ta'lim va tarbiya asoslar”;
“Bolalar bog'chasida ilk iqtisodiy ta'lim-tarbiya dasturi>>ga ko'ra bog'cha bolalariga tanishtirish lozim bo'lgan 6 ta tushuncha; <<Bolalar bog'chasida ilk iqtisodiy ta'lim-tarbiya dasturi>>ga katta gurux bolalarini 8 xil iqtisodiy tushuncha bilan tanishtirish; tayyorlov gurux bolalarini 12 xil iqtisodiy tushuncha (iqtisod, mexnat, oila, jamiyat, aloqa, ma'naviyat, qoida va tartibni saqlash, boshqaruv, savdo, pul, maxsulot) bilan tanishtirish xamda yuqorida ko'rsatilgan tushunchalarni shakllantirishga asoslangan mashg'ulotlar kabilar; <<uy ishlarini bola tasavvuridagi o'rni>>, <<uy ishlarida xalq og'zaki ijodidan foydalanish>>,”

<<bozor iqtisodiyotiga dor atamalarning lug'aviy ma'nolari>>; <<muloqot bilim va ko'nikmalarni mustaxkamlaydi>> bilan bog'liq materiallar tashkil qilgan.

Yosh avlodga iqtisodiy tarbiya berish va uni amalga oshirish bo'yicha muxim tarbiyaviy tadbirlar "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da aks etgan, ya'ni unda "Ta'limning barcha darajalarida ta'lim oluvchilarning iqtisodiy, ekologik ta'lim xamda tarbiyasini takomillashtirish zaruriyati aloxida ta'kidlangan.

Iqtisodiy ta'lim va tarbiyaning nazariy va amaliy muammolari bilan o'tgan asrning 20-yillarida P.P.Blonskiy, S.T.Shatskiy, A.S.Makarenko va boshqalar shug'ullanganlar.

Iqtisodiy ta'lim-tarbiyaning pedagogik asoslari MDX davlatlari pedagogik olimlari A.F.Almend, A.I.Abramova, A.Abduxalilov, E.K.YESENJALOV, B.Shemyakin, I.A.Sasova va boshqalarning ilmiy izlanishlarida yoritilgan.

Boshlang'ich sinf va yuqori sinf o'quvchilarini iqtisodiy tarbiyalash muammolari o'zbek olimlaridan Z.Valieva, X.Matyoqubov, N.Shodiyev, E.Muxibov, X.Umarova, N.Xamedova, Sh.Fayzullayev va boshqalarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan.

Iqtisodiy ta'lim va tarbiya – bu insonni iqtisodiy faoliyatga, mamlakat iqtisodiy faoliyatida faol ishtirok etishga tayyorlash jarayonidir.

Iqtisodiy ta'lim umumiy ta'limning tarkibiy qismi bo'lib, u xuddi umumiy ta'lim mazmuniga o'xshab IV qismdan iborat: tabiat, jamiyat, texnika, inson, faoliyati usullari, tanish faoliyat usullarini amalga oshirish tajribasi (ko'nikma, malakalar), ijodiy faoliyat tajribasi; real xodisalarga emosional munosabat tajribasi. Ushbu mantiqqa ko'ra iqtisodiy ta'lim-tarbiya iqtisodiy ishlab chiqarish va mexnat xaqidagi bilimlarni, tashkiliy-iqtisodiy faoliyat ko'nikma va malakalarini, iqtisodiy mmunosabatlar tajribasi va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Iqtisodiy ta'limning maqsadi – mexnatkash insonning xozirgi zamon ishlab chiqarishida iqtisodiy va tashkiliy jixatdan faoliyati bilan bog'liq kishilik jamiyatining ijtimoiy tajribasini o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishidir.

Xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarini bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tish oilaviy qudrat, xo'jalik xisobining tobora chuqur ildiz otishi tufayli iqtisodiy ta'lim inson omilini faollashtirishning zarur sharti xisoblanadi.

Mexnatkashlar ommasining iqtisodiy xayotda faollashtirish, jamiyatning maktabga bergan buyurtmasi – o'quvchilarga nafaqat iqtisodiy bilimlar samarasini, balki iqtisodiy faoliyatga tayyorlash masalasini, iqtisodiy tarbiyani kun tartibiga qo'ydi.

Iqtisodiy tarbiya keng ma'noda – bu odamda bilim, ko'nikma va malakalar, extiyojlar, qiziqishlar va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy sifatlarni shakllantirish maqsadida unga tizimli, maqsadga qaratilgan ta'siridir.

Yosh avlodning miliy tarbiyasi orasida iqtisodiy ta'lim va tarbiya berishning vazifasi muxim tarbiyasi orasida iqtisodiy ta'lim va tarbiya berishning vazifasi muxim o'rin egallaydi va shu boisdan xam u ta'lim-tarbiya jarayonida xalqilinadi.

Umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchisi savodxonlarcha va tabiat boyliklaridan oqilona va tejamli munosabatda bo'lishi kerak. Iqtisodiy tarbiya miliy tarbiyaning kamoloti.

Xulosa qilib aytish mumkinki, ba'zi bolalarga turli-tuman mashg'ulotlarda iqtisodiy tushunchalar berishning samaradorligi faqatgina ana shu tushunchalar tizimini o'zlashtirishga bog'liq bo'lmasdan, balki bu tushunchalarni amalda qo'llash bo'yicha ko'nikmalarni tarkib topdirishdan iboratdir.

1.2. Movaraunnahrlik mutaffakirlar saralarida iqtisodiy ta'lim – tarbiya masalalarini yoritilishi

Uzoq o'tmishimizdan ma'lumki, ota-bobolarimiz Buyuk Ipak yo'lini kashf etish orqali savdo-sotiqni, mol ayirboshlashni yo'lga qo'yganlar. Shu tufayli ishlab chiqarish rivojlandi, moddiy farovonlik oshdi, fan, adabiyot, madaniyat soxasida yangiliklar ro'y berdi.

Maktabgacha ta'lim muassassalari bilalarning iqtidor va ko'nikmalarini boyitishga yo'naltirilgan o'quv materiallari tizimini shakllantirishda o'zbek

xalqining xalqining tarixiy tajribasidan samarali foydalanish juda asqotadi. Chunki, ezgulik, xalollik, saxovat, ulug'vorlik, poklik singari ijobiy fazilatlar ta'lim-tarbiyada katta o'rin tutadi. Shuning uchun odob-axloq xaqidagi pandu nasixatlar, o'git, maqol, matallarda o'zbekona ma'naviyat, qadriyatlarga qadim zamonlardan boshlab aloxida e'tibor berilgan. Chunki, Qur'oni Karim, al-Buxoriy, Abu Nasr Farobiy, Beruniy, Kaykovus, Maxmud Qoshg'ariy, Amir Temur, Alisher Navoiy va boshqa mutaffakirlar, shoirlar, olimlar asrlarida bayon qilingan iqtisodga oid qaralishlari bularga misol bo'ladi.

Chunki Qur'oni Karim, al-Buxoriyning "Al-Jomey as-saxix" asari o'quvchilarda bozor iqtisodiyotiga o'tishning ma'naviy-axloqiy asoslarini shakllantirish va rivojlantirishda muxim axamiyatga ega.

Xadislarda Sharq madaniyatning buyuk tuxfasi sifatida uzoq tarixga ega ekanligi, ular o'zlarining falsafiy mazmuni bilan kishilarning ma'naviy, iqtisodiy, madaniyatini shakllantirishda boy imkoniyatlari borligi va bugungi yoshlarni tarbiyalashda keng imkoniyatlar mavjudligi tufayli ulardan ta'lim-tarbiya jarayonlarida bog'cha bolalariga iqtisodiy ta'lim berish yo'llarini namoyon qilish uchun tavsiyalar ishlab chiqish joiz.

Bolalarda iqtisodiy bilim va tushunchalarni shakllantirishga yo'naltirilgan o'quv materiallari tizimini vujudga keltirishda xam o'zbek xalqining keng tarixiy boyliklaridan foydalanish asqotishini ko'rsatish maqsadga muvofiqdir. Chunki xadislarda da'vat qilingan ezgulik, saxovat, ulug'vorlik, xalollik, poklik kabi ijobiy fazilatlar ta'lim-tarbiyada, jamoa a'zolari o'rtasida ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy munosabatlarni shakllantirishda juda asqotadi.

Imom Ismoil al-Buxoriyning "Al-Jome as-saxix"(Ishonarlito'plam)[] asaridan ta'lim oluvchilarda bozor iqtisodiyotiga o'tishning ma'naviy-axloqiy asoslarini tarkib toptirish va rivojlantirish bo'yicha bog'cha tarbiyachilariga tavsiyalar berishda asqotadi. Ularga xadislarda mexnatsevarlik, xalollok qanday ulug'langanligi, insonning o'z mexnati evaziga topgan rizqini naqadar lazzatli ekanligini ko'rsatish, ta'lim-tarbiya jarayonida bog'cha bolalarning yosh va individual xususiyatlaridan kelib chiqib xadislarda bayon qilingan ezgu go'yalarni

kuchaytirish orqali ularni nasixat va talab shaklida bog'cha bolalariga yetkaza olish, xalqimiz g'oyalariga zid bo'lgan odatlarni majoziy bo'rttirib bolalarni yomon oqibatlardan ogox qilish bo'yicha tarbiyachi pedagoglarga yo'l - yo'riq berish joizdir.

Abu Rayxon Beruniy tabiatshunoslik sohasidagi buyuk kashfiyotlari bilan bir qatorda iqtisodiy munosabatlarda o'zining betakror muloxazalarini bildirgan. Jumladan, uning jamiyatning paydo bo'lishi, yashash va rivojlanish qonuniyati, mexnat taqsimoti va pulning paydo bo'lishi xaqidagi qarashlari bugungi kunda millatimizning o'zligini anglash va qadriyatlarni tanishi jarayonida muxim ahamiyatga molikdir.

Ulug' mutafakkir Abu Rayxon Beruniy kishilik jamiyatining paydo bo'lishisababini ongli mavjudotlarning bir-biri bilan birgalikda yashashga bo'lgan tabiiy ehtiyojlaridandir deb tushuntiradi. Chunki, kishilar o'zlarining ehtiyojlarini qondirish uchun, shuningdek, tabiat kuchalari bilan kurashda o'zlarini saqlab qolish uchun jamoa bo'lib yashashga muxtoj edilar. Ular o'zaro xamkorlikga va bir-birlariga ma'naviy-moddiy yordam berishga intilishlarini alloma qonuniy jarayon deb qaraydi. Buyuk mutafakkir o'zining "Geodeziya" asarida shunday yozadi: ehtiyojlarning ko'pligi, tengsizlikligi va bir ehtiyojning qondirilishi bilan ikkinchi bir ehtiyojning paydo bo'lishi, qondirilgan ehtiyojlar esa odatiy bir xolga aylanishi, ammo mana shu ehtiyojlarning qondirish vositalarining kam va taqchilligi odamlarni boshqa ongli mavjudot bilan birga bo'lishiga olib keladi. Ehtiyojlarni o'zaro qondirish borasida xar hil mexnatning muayyan bir turi bilan shug'ullana boshlaydi. Ya'ni ilk mexnat, o'z mexnatining natijasi, o'z mexnatlarini qondirish uchun zarur bo'lgan tirik vositalarni miqdori bilan o'lchanur. Mana shu mexnat qimmatini va tirikchilik vositalariga bo'lgan ehtiyojlarning o'lchovini aniq belgilab olish maqsadida kishilar xar ikkalasiga baxo qo'yish va uning tegishli ekvivalentini belgilash xususida kelishuvga keldilar. Bunday kelishuvlar sifatida har xil metal va toshlar, mexnat va tirikchilik vositalarining o'lchovi sifatida adolatli taqsimlash va almashuv vositalari bo'lgan[83], Abu Rayhon Beruniyning

mazkur muloxazalari bilan MTM tarbiyachi pedagoglarni tanishtirish bolalar bog'chasida iqtisodiy ta'lim-tarbiyaga ijobiy ta'si kursatadi.

Buyuk mutafakkir pulni turli extiyojlarni qondirish uchun ishlab chiqarilgan mexnat maxsulotini almashtirish uchun muxim zaruriy ekvivalent sifatida paydo bo'lganligini qayd qiladi. Bunday bo'lishining sababi, shaxarlarning paydo bo'lganligi qayd qiladi. Bunday bo'lishining sababi, shaxarlarning paydo o'lishi, ularda savdo-sotiq, xunarmandchilik ishlarining rivojlanganligidir. Kishilik jamiyatining ilk davrlarida xukmronlik qilgan natural almashinuvlarning yangi turi-pul deb ko'rsatadi. Allomaning fikricha, ilk davrlarda jamiyatda tenglik xukmron bo'lgan jamiyatda boylar va kambag'allar degan tushuncha bo'lmagan. Jamiyatda bunday ijtimoi tengsizlikning paydo bo'lishining asosiy sablaridan biri – bu pulning paydo bo'lishi va Tovar-pul munosabatlarining vujudga kelishidir. Pul va tovar-pul munosabatlari kishilarning turmush tarziga putur yetkazib, ularning nafslarini turli illatlar - ochko'zlik, mansabparastlik, shuxratparastlik bilan xastalashtirish. Bularning xammasi odamlarda boylikka xirs, kuch qudrat va xokimiyatga ishtiyoq kayfiyatlarini keltirib chiqardi.

Abu Rayxon Beruniy “Bir daqiqa vaqtни bekor o'tkazganim xalok bo'lganim” degan ekan. U yiliga ikki martagina dam olarkan. Buning birinchisi “Navro'zi olam” kirgan kun, ikkinchisi bug'doyga birinchi o'troq tushganda... Dillarni xushnud etib “Navro'zi olam” kirib kelgan kuni erta tongdanoq o'rinlaridan turib, yuvinib taranib yangi liboslarini kiyib, qarindosh-urug'larni keyin yor-u birodarlarini ziyorat qilib xolidan xabar olar ekanlar. Ular bilan birga bo'lib suxbatlashar, xazil mutoyiba qilar, askiyalar aytar ekanlar. Keyin esa to qosh qorayguncha qo'sh qo'shishar yerga birinchi omoch solishda qatnashar, nixol ekishar ekanlar. Olimni ko'rgan-bilganlar bilan “xorma, borma qilishsa xam” “Dam olib, rizqimni terayabman” deb javob berar ekanlar. Buyuk alloma mutoala, kitob yozish tajriba o'tkazish kabi ishlardan atiga ikki kun vaqt ajratib azondan kechgacha qo'sh qo'shib shudgor qilishni o'zi uchun dam olish deb xisoblar ekanlar.

Kaykovus “Qobusnoma” asarida iqtisodga oid qarashlarini shunday ifodalaydi:

“Har ishning bir sababi” border. Ammo qashshoqlikning sababi isrofdir. Isrof faqat molni sarf qilishgina emas, ovqat, kishinig qiliqlari nutqida ham isrof, isrof tanni aldaydi, nafasini ranjitadi, aqilni qochiradi va tirikni o’ldiradi, chiroqning tirikligi yoz bilandir.

Agar yog’ni haddan tashqari ko’p solsang, yog’ pilikning boshiga chiqib chirog’ni o’chiradi, yog’ esa chuyanning yonishiga sababchi edi, isrof jihatdan o’limiga sabab bo’ldi...” (57-62).

Mutafakkirning yana bir nasihati savdo – sotiq ishida kishilarni bironing haqiga hiyonat qilmaslikga, rostgo’y hamda muruvvatli bo’lishga undaydi.

“Savoda yolg’on so’z aytmagil, kofir va musulmon orasida savdo vaqtida yolg’on so’z aytish ko’p yomon feldir. Sotmaguncha molni qo’ldan hech bermagil va muamilada sharmqilmagilkim, donishmantlar aytibdilarkim sharmda ko’p umid va orzular hosil bo’lmogusidir. Lekin ko’p muruvvat va behayo bo’lish, (bu) foyda bermaydi. Debdilarki, savdogarchilikning asli tasarrufi va muruvvatdir. Chunki bular molni omon saqlashga sabab bo’lur. (57-86).

Xalol odam qallobli, ta’magirlik, birovlarni qon qaqshatish asosida boylik orttirishdan nafratlanadi, xalq qarg’ishidan cho’chiydi. Kimdaki, anashu insoniy fazilat mavjud bo’lsa, uni hamisha xiyonat, bediyonat va nopoklik yo’lidan qaytish, xalollik, poklik, diyonat sari odimlashiga ko’maklashadi. Bir umir baxtli, yuzi yorug’ bo’lishini istagan odam hardoim xalol yeb – ichadi, xaromdan jirkanadi.

Maxmud Qoshg’ariy o’zining “Devoni lug’atit turk” asariga kiritgan xikmatli va ibratli gaplarda ta’lim-tarbiya, xulq-atvor, ilm fan to’grisida xur fikrli g’oyalari bilan bir qatorda unda kishilarning mexnat qilishlariga va yaxshilik qilishga undaydi va xunar soxiblarini e’zozlaydi, ulardan ibrat olishga kishilarni chorlaydi. U jamiyatdagi illatlarga-ta’magirlik, boylik ketidan quvish, bahillik va boshqalarga qarshi chiqadi. Uning insonparvarlik bilan sug’orilgan g’oyalari bolalarga iqtisodiy tarbiya berishda foydalanish bo’yicha aniq tavsiyalar berildi.

Shu bois “Devoni lug’atit turk” asarida iqtisodga oid satrlar mazmun mohiyatini taxlil qilish joizdir. Quyida ana shunday parchalardan namunalar keltiramiz. “Tirishqoqning labi yog’liq”, “erinchoqning boshi qonlik”. Chunki tirishqoq ko’p ishlab, yaxshi taomlar, go’sht, yog’lar topadi. Shu bilan u boy yashaydi. Erinchoq o’zining yolqovligi bilan ishidan qochadi, xafalikdan boshiga uradi, uni qonatadi.

“Qarz beruvchi – arslon, qarz oluvchi – sichqondir” Bu maqolda qarz beruvchi – puldor xujum qilishga go’yo arslondir, qarzdor esa qo’rquv vaxima bosganidan go’yo sichqondir, degan uxshatma keltirilgan.

“Bo’sh narsaga ega bo’l” Ushbu maqol esa o’z molini puxta saqlashga qaratilgandir.

“Quruq qoshiq og’izga yoqmas, quruq so’z quloqqa yoqmas”. Bu maqol esa birovdan yordam so’rash uchun unga xam biron foyda ko’rsatish kerak degan ma’noda qo’llaniladi.

Isrofgarchilikka qarshi xamda ishni boshida puxta o’ylab qilish kerakligiga undaydigan maqol; **“Xitoy xokimining ipak gazlamasi ko’p, lekin o’lchamay kesilmaydi”**.

Buyuk sarkarda Amir Temur dexqonchilik yashash va tirikchilik manbai, saltanat, mamlakat iqtisodiyotning asosiy tarmog’I, ijtimoiy iqtisodiy barqarorlikning muximm omili ekanligini xisobga olib, yerdan oqilona foydalanish va uni e’zozlashga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirgan. Bu xaqda soxibquron bobomiz shunday yozadi. Xarob bo’lib yotgan yerlar egasiz bo’lsa xolisa tomondan obod qilishsin. Agar egasi bulsa-yu obod qilishga qurbi yetmasa, unga turli asboblar va kerakli narsalar beringlar, toki o’z yerini obod qilib olsin, xarob yerlardagi korizlar, quvirlar, buzilgan ko’priklarni tuzatishsin, ariq va daryolar ustidaga yangi ko’priklar qursinlar. Dexqonlarning dexqonchilik qilishga qurbi yetmay qolsa unga eki-tekin uchun urug’ va asbob tayyorlab berilsin.

Yerni yashnatish va tarqoq yerlarni birlashtirish uchun ne-ne buyuk ishlarni qilgan bobomiz joyi kelganda mukofot tariqasida kishilarga yer **inom** etganligi tarixan ma’lum. Masalan, Mir Said Barakaga Anxoy shaxri yaqinida bir qism yerni ajratib bergan.

Ulug' ustoz esa o'sha yerlarni obod qilgan va xosildor yerga aylantirgan. Xanuzgacha Mir Said Braka nomi bilan bog'liq o'sha yerlar muqaddas qadamjolar sifatida qadrlanmoqada.

Bundan tashqari ulug' bobokalonimiz o'z Tuzuklarida bayon qilgan iqtisodga oid fikrlari aloxida axamiyatga ega. Uning mexnat intizomi, buxgalteriya xisobi, statistika, nazorat kabi davlatni boshqarish bilan bog'liq qarashlari bugungi kunda xam asqotadi.

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy o'zining "Maxbub-ul qulub" asarida iqtisodga oid fikrlarini bayon qilish barobarida, u xiyonatchi o'z foydasini ko'zlaydigan, eliga qaxatchilik tilaydigan, arzon olib qimmatga sotadigan, ziyon yetkazadigan olib sotarlarni qoralagan. Xalol, pok, nafsini tiya oladigan bo'lishga da'vad etganligini bilan tarbiyachi pedagoglarni tanishtirish asqotadi. Mazkur asarni taxlil qilar ekan unda savdo nixoyatda insof-u diyonatli, pokiza, rostgo'y bulmog'i, o'zining foydasi uchun o'zgalarga ziyon yetkazmasligi, kunglida birni yuz qilaman, bo'zi shoyiga aylantiraman degan xoxish bo'lmasligi, aybli va nuqsonli narsalarni sotmasligi, kasod mollarni pullamasligi xaqida Navoiyning fikrlarini MTM tarbiyachi pedagoglari e'tiboriga xavola etish maqsadga muvofiqdir.

Savdogar yolg'iz foydani niyat qilmasligi, foyda qilaman deb o'zini qattiq mashaqqatga qo'ymasligi, foyda qilaman deb dengizga kema surmasligi, zar olaman deb naxang og'ziga qo'l o'rmasligi, mol va pul ko'paytiraman deb jonsarak bo'lmaslik kerak. U xizmatkor va savdodagi gumashtalarini o'z xashamati va obrusining sababchisi deb bilmasligi, nafis matolarni ayab eski chopon kiymasligi, lazzatli taomlarni ko'zi qiymay, qattiq non yemasligi lozim. Uning tortgan qiyinchiliklari tirikchiligining yaxshi bo'lishi uchun xizmat qilsa va topgan foydasi ko'ngil farog'ati uchun sarflansa yaxshilanadi...[25.33] kabi Alisher Navoiy yosh bolalarni komillikka chorlash barobarida komil inson fazilatlariga zid bo'lgan tamagirlik, nokaslik, nafsni jilovlay olmaslik, manmanlik kabi yaramas sifatlarni qattiq qoralab o'zining quyidagi fikrlarini bayon qiladi.

Ta'magirlik biror nimaning ochligi-xuddi yeb to'ymasning ochko'zligiga o'xshaydi.

Ta'magirlik va yeb to'ymaslik shunday yomon fe'li, bular go'yoki ikki yoqimiz egizakdir. Unisi bunday yomon-bunisi unday yomon ikkalasi xamma yomondan yomon.

Abdulla Avloniyning fikr-muloxazalaridan shunday xulosa qilish mumkin, kishilar o'z ko'zlagan maqsadlariga erishishlari asosini o'z millatiga xizmat qilishlari va xalq orasida, jamiyatda munosib o'rin topishlari uchun ilm va mol zarur va bolalarni ma'naviy axloqiy tarbiyalashda juda qo'l keladi. Ulug' pedagog "Iqtisod" bobini "Xalq mif tabar bir narsa yo'q davlat kabi bo'mag'ay davlat jaxonda quvvat sixat kabi iqtisod, insof ziynatdur vujudda odama yaxshi mexnat yo'q kishiga say ila g'ayrat kabi Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asari, undagi "Iqtisod" bobi o'sib kelayotgan yosh avlodni yangi zamon talablari asosida tarbiyalash uchun xizmat qiladi.

Alisher Navoiyning fikricha jamiyat azosi bo'lgan xar bir kishi o'z xalqiga xizmat qilishi, yordam berishi, foyda keltirishi xalq manfaatini o'z manfaatidan yuqori qo'yishi, xalq uchun, vatan uchun foyda keltirishini unutmazlik kerak. Mustaqillik munosabati bilan jamiyatimizda, tadbirkorlik, oilaviy biznes, fermer xo'jaliklari tobora rivojlanib borayotgan xozirgi davrda xoh tadbirkor bo'lsin, xoh fermer bo'lsin o'z xalqiga, vataniga chin ko'ngildan xizmat qilayotgan xar bir kishi foyda keltirishga intilmog'i lozim. Anashu sa'i – harakatni kichik maktab yoshidan boshlab bolalarga singdirishda ularga Alisher Navoiy asarlarini ko'p vas oz o'rgatish asqotadi. Bu xaqda Alisher Navoiy shunday deydi:

Nafyitko'rmakka shior ayladm
O'zingni ul nafni yer ayladm
Nafni agar xalqqa beshak dur,
Bayoki bu naf o'zinga ko'proq zarur

Alisher Navoiy xalqqa ish bilan xam, so'z bilan xam ko'ngi bilan xam foyda keltirishi kerakligi aytadi. Xalq manfaati uchun ishlaydigan xalqning baxti saodati uchn kurashadigan kishilarni xaqiqiy odam deydi:

Odam ersang demagil odamiy,
Oniyki yuq xalq g'amiydan g'amiy

1.3 Yosh avlodga iqtisodiy ta'lim – tarbiyalash bo'yicha izlanishlarning hozirgi holati.

Maktabga tayyorlov guruhi bolalarini tevarak atrof bilan tanishtirish tarbiyalanuvchilarga ularni o'rab turgan moddiy olam (kiyim – kechak, jixozlar, oziq – ovqat) , tabiat (jonli, jonsiz), jamiyat, undagi o'zgarishlar, ijtimoiy voqea – hodisalar (kishilar mehnati, ularning natijasi)ni rasm, she'r, topishmoq, xalq maqollari tanishadilar. Tevarak – atrof, bilan tanishuv jarayonida tejamkorlik (isrof), maosh, mehnat, pul, mahsulot, uvol, savob, nobud kabi so'zlarning ma'nosi tushuntiriladi.

Biz maktabga tayyorlov guruhi bolalarini tevarak – atrofga, ularni o'rab turgan moddiy olamga, tabiiatga doir tasavvur va tushunchalarni hozirgi holatini aniqlash uchun Samarqand shahridagi 62- Bolalar bog'chasini o'rganish ob'yekti qilib oldik.

Biz ilmiy tajribamizning dastlabki bosqichida maktabga tayyorlov guruhi bolalarida tevarak – atrof, atrofimizdagi moddiy olam, tabiat bilan tanishtirish o'quv va mashg'ulotlarda amalga oshirilayotgan ta'lim va tarbiya mazmunini tahlil qilish va shu asosda ularda ko'rgan – bilganlarini savol – javoblar asosida gapirib berish talab qilishdir. Biz bergan savollarimizga bolalarning 50 foizidan javob ololmadik. Bu esa MTM tarbiyalanuvchilarining tevarak – atrof, moddiy olam va h.k. doir tasavvur va tushunchalarni shakllantirishga tayyorgarlik darajasi quyidagiday emasligidan dalolat beradi. Ular o'zlarining faoliyatlarini ko'proq tevarak – atrof, tabiat moddiy olam bo'yicha nazariy bilimlar berishdan iborat deb o'ylaydilar.

Quyida biz tarbiyachilardan olgan anketa savollarimizga olgan javoblardan ayrim namunalarni va ularga tahlilimizni keltiramiz. Samarqand shahridagi 62-sonli bolalar bog'chasi tarbiyachisi Oyniso Botirova (Siz tevarak – atrof, moddiy olamga doir tasavvur va tushunchalarni qanday tushunasiz?) savoliga “Men tevarak – atrof, moddiy olamni, tabiatni ularda bo'ladigan o'zgarishlarni tevarak – atrof va moddiy olamdagi borliqni tushunaman” deb tumtoq javob berdi. Huddi shu savolga shahrimizdagi 62- bolalar bog'chasining tarbiyachisi saodat ochilova

shunday javob berdi: “Men tevarak –atrofdagi, moddiy olamdagi, kiyim – kechakni, maxsulotni, insonlar, mehnatini tabiat o’simliklarini va hayvonlarni asrab – avaylash tushunaman”. Bu javob ham qoniqarli emas.

Biz bo’lgan bog’cha tarbiyachilari “Iqtisod” , “Mehnat” , “Oila” , “Boylik” , “Mulkiy munosabatlar” , “Savdo” , “Pul” , “Maxsulot” kabi tushunchalar haqida umumiy tasavvur va tushunchaga ega, ammo ularning tub mohiyatini to’liq ochib bera olmaydilar. Shu bois MTM tarbiyachilarni o’z bilganlaricha ish yurutmoqdalar. Oqibatda bunday turli – tuman men bog’chada amalga oshirilayotgan dastur bo’yicha iqtisodga oid tasavvur va tushunchalar hozirgi kun taablariga javob bera olmaydi.

MTM tarbiyachilari bilan o’tkazilgan o’zaro suhbatlardan yana shu ma’lum bo’ldiki, tarbiyachilarning aksariyat maktabga tayyorlov guruhi bolalariga iqtisodga oid tasavvur va tushunchalarni berishda ularning yosh va individual psixologik hususiyatlarini hamma vaqt ham hisobga olmasliklari ma’lum bo’ldi. Bunda biz MTM tarbiyachilarining dunyo qarashi, tevarak – atrifga, moddiy olamga, tabiatga bo’lgan qiziqichlari va tevarak – atrofga, moddiy olam va h.k. doir tasavvur va tushunchalarni oddiydan murakkabga tomon tartibga solib, umumlashtirgan holda, soda qilib tushuntira olish mahoratlari hisobga olindi.

O’tkazilgan tahlillar natijalariga ko’ra MTM tarbiyachilari iqtisodga oid tasavvur va tushunchalarni amalga oshirish ko’rsatkichlari bo’yicha uch darajaga ajratildi:

1. Yuqori daraja – bu toifa pedagog – tarbiyachilar iqtisodga oid tasavvur va tushunchalarning maqsadi, vazifalari, mazmuni, tashkiliy shakllarini tushuntirish orqali to’la anglab oladilar.

2. Yetarli daraja – bu toifadagi MTM tarbiyachilari iqtisoda oid tasavvur va tushunchalarning mohiyatini tushunadilar, lekin ularni amalga oshirish metodikasidan samarali foydalana olmaydilar, ayrim hollarda metodik hatoliklarga yo’l qo’yadilar. .

3. Qoniqarsiz daraja – mazkur bog’cha tarbiyachilarida iqtisodga doir tasavvur va tushunchalarga qiziqish yo’q, lekin zaruriy bilimlari mavjud bo’lsada

iqtisodga oid tasavvur va tushunchalar, ko'nikma va malakalarni yetarli egallamagan.

O'tkazilgan <> tajriba sinov natijalariga ko'ra MTM tarbiyachi pedagoglarning 7 foizi – birinchi, 48 foizi – ikkinchi, 45 foizi – uchinchi darajada ekanligi namoyon qilindi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar MTM tarbiychilarining bog'chada tayyorlov guruhi bolalarida iqtisodga oid tasavvur va tushunchalarni shakllantirishga tayyor ekanlilarini ko'rsatadi.

“Ilk iqtisodiy ta'limm – tarbiya” dasturiga binoan maktabga tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarni aniqlash uchun quyidagi ko'rsatkichlar asos qilib olinadi:

1. Vatanimiz – O'zbekistonning taraqqiyoti haqida.
2. O'simliklar va hayvonlar va ulardan olinadigan oziq – ovqat, kiyim – kechak va poyabzal mahsulotlari haqida.
3. Oziq – ovqat va kiyim – kechak mahsulotlarining asosiy turlari haqida.
4. Pul va narx ularning turlari haqida.
5. Qoida va tartibni saqlash haqida.
6. Insonlar extiyoji uchun ishlab chiqariladigan narsalar haqida.

Bolalarning javoblari to'liq, o'rtacha va qoniqarsiz darajalarga ajratib baholandi.

Biz tajriba bog'chasida tadqiqot boshlashdan oldin tarbiyalanuvchilarning iqtisod to'g'risidagi tasavvur va tushunchalarni, ularning iqtisodga munosabatini aniqlash maqsadida 52 nafar bolalar bilan savol – javob o'tkazdik. Savollarga 52 ta bog'cha bolasidan javoblar olindi. Samarqand shahar 62-, bog'chasi bolalari orasida o'tkazilgan so'rovlar va olingan javoblar tahlili tarbiyalanuvchilarda tabiatga oid tasavvur va tushunchalarning shakllanish darajasi qoniqarsiz ekanligini ko'rsatdi. O'tkazilgan savol – javoblar tahlilining natijalarini qarashga o'tamiz.

Tayyorlov guruhi bolalarining javoblari qo'yidagicha bo'ldi: "Siz bog'changizda mavjud uy – honadon jihozlarini bilasiz?" savoliga 52 nafar boladan 10 tasi - to'liq, 25 tasi- o'rtacha, 17 tasi - qoniqarsiz javob berishdi.

"Siz bog'changizda o'sadigan daraxtlarni parvarish qilish uchun zarur mehnat qurollarini birma – bir sanab ko'rsating?" Bu savolga tarbiyalanuvchilardan 15 tasi- to'liq, 23 tasi - o'rtacha, 14 tasi – qoniqarsiz javob berishdi.

- Sotuvchi va haridor qayerda uchrashadilar?

Ushbu savolga 17 tasi – to'liq, 22-tasi o'rtacha 13 tasi – qoniqarsiz javob berishdi.

- Material turlarini aytib bering?

Bu savolga so'ralganlardan 27 tasi – to'liq, 17-tasi o'rtacha 8 tasi – qoniqarsiz javob berishdi.

- Sizing bog'changiz qanday materiallardan foydalanib bunyod etilgan?

Tajriba – sinov jarayonida MTM tarbiyalanuvchilarga berilgan savollarga olingan javoblarning tahlili bog'chalarda iqtisod to'g'risidagi tasavvur va tushunchalarni shakllantirish talab darajasida amasligidan dalolat beradi.

Tayyorlov guruhi bolalarida iqtisodga doir tasavvur va tushunchlarni joylashgan 62- bog'chada bolalarning iqtisod sohasiga qiziqishini shakllantirish bo'yicha qo'yidagi kamchiliklar va nuqsonlar borligini ko'rsatdi:

1. MTM tarbiyalanuvchilarni tevarak – atrof, moddiy olam, tabiat bilan tanishtirish mashg'ulotlar jarayonida ularga doir tasavvur tushunchalarni shakllantirish bo'yicha muayyan ish tizimi yaratilmagan.

2. MTM da o'tkaziladiga mashg'ulotlar jarayonida tarbiyalanuvchilarda iqtisodga doir tasavvur va tushunchlarni shakllantirishning maqsadga muvofiq yo'llari ishlab chiqilmagan.

3. MTM tarbiyachi – pedagoglari uchun maktabga tayyorlov guruhida iqtisodga oid tasavvur va tushunchalarni shakllantirishga doir metodik adabiyotlar yetarli emas.

4. MTM pedagog – tarbiyalanuvchilarining aksariyati mashg'ulotlar hamda

Birinchi bob bo'yicha xulosa

O'zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, birinchi Prezident I.A.Karimov asarlarida iqtisodiy ta'lim va tarbiyaga oid olg'a surilgan fikr – mulohazalar asosida maktabga tayyorlov guruhi bolalarida iqtisodiy tasavvur va tushunchalarni tarkib topdirish masalasi pedagogik muammo sifatida asoslandi.

Mazkur bobda ilmiy – pedagogik adabiyotlarda bayon qilingan “Iqtisod”, “Iqtisodiy madaniyat”, “Iqtisodiy savodxonik” tushunchalar o'rganilib, tahlil qilindi. Tushuncha sezish, idrok qilish, tasavvur qilish, tajribalar bilan bevosita bog'liq bo'lib, inson bilimini rivojlantiradi. Tushuncha ilmiy tafakkurning asosiy shakli bo'lib, so'zlarda, muloqotlarda ifoda etiladi va mustahkamlanadi. Bolalarda iqtisodiy tushunchalarni shakllantirish murakkab, uzoq davom etuvchi va ko'p qirrali jarayon bo'lib u ta'lim – tarbiya jarayoning tarkibiy qismi bo'lgandagina samarali amalga oshishi mumkin. Bolada iqtisodiy tushunchalarni shakllantirish – bu unda yoshiga muvofiq keluvchi tevarak atrofdagi moddiy ne'matlar buyumlarga nisbatan extiyotkorlik munosabatda bo'lish, inson mehnati maxsuliga, jamoatchilik mulkiga to'g'ri munosabatni tarkib topdirishni tarbiyalash demakdir.

O'tmishda ota – bobolarimiz Buyuk ipak yo'lini kashf etish orqali savdo – sotiq, mol ayirboshlashni yo'lga qo'yib, movaraunnahrda hunarmandchilik, dehqonchilik va chorvachilikni rivojlantirishga katta hissa qo'shganlar. Qur'oni Karm, Hadis, Imom al Buxoriy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Mahmud Qoshg'ariy, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy asarlarida ilkbor pul, pul – tovar munosabatlari, savdo – sotiqda halollik, rostgo'ylik, isrof, extiyoj va uni qondirish, mexnat intizomi, buxgalteriya, statistika, nazorat, foyda kabi ko'plab insonlarni iqtisodiy tarbiyalashga oid pand – nasihatlar, amaliy faoliyat namunalari bayon qilingan.

Shuningdek mazkur bobda Samarqand shahridagi qator maktabgacha ta'lim muassasalari tayyorlov guruhlarida bolalarida iqtisodiy tasavvur va tushunchalarni shakllantirishning amaldagi holati o'rganilib, taxlil qilindi.

II bob. MTM tayyorlov bolalarida iqtisodiy tasavvur va tushunchalarni tarbiyalashning mazmuni, shakl, metod va vositalari

2.1. MTMda bolalarni ilk bor iqtisodiy tushunchalar mazmuni bilan tanishtirish.

Mamlakatimizda bozor iqtisodiyoti munosabatlari shakllanib borayotgan bir vaqtda iqtisodiyotining mohiyati, vazifasi va maqsadlarini o'rganish, xar bir o'sib kelayotgan bola uchun katta ahamiyatga ega ekanligi xaqida O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A. Krimov "Bunyodkorlik yo'lidan" asarida qo'yidagilarni ta'riflab o'tgan: "Biz yosh avlodni bolalar bog'chasiga qatnayotgan davrdan boshlab xalqimizning asrlar davomida shakllangan Sharq pedagogikasi, umumbashariyat qadriyatlar asosida tarbiyalashimiz lozim. Bozor iqtisodiyotning o'tishi davrida talablarga iqtisodiy bilimlarni, marketing, menejment, biznes sohasida, bizning iqtisodiy rivojlanishimizda bu tushunchalarning mohiyati va roli borasida ko'proq bilim berishimiz maqsadga muvofiqdir" [280].

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti xuzuridagi iqtisodiy islohot tadbirkorlik va xorijiy sarmoyalar bo'yicha Iddoralararo Kengashining 1996-yil 16 martdagi "O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy ta'limni tashkil etishini takomillashtirishining asosiy yo'nalishlari to'g'risida"gi qarorini bajarish va uzluksiz ta'limni tashkil qilish maqsadida 92- raqamli bo'yruq'I asosida barcha umumta'lim maktablarining 1-9-sinflarida maxsus dasturlar va darslilar asosida "Iqtisodiy ta'lim asoslari" fani kiritildi. Respublikamiz xalq ta'lim vazirligining 1996 yil 29 apreldagi tarbiyalanuvchilar ongiga MTM olib borilayotgan barcha turdagi mashg'ulotlar tarkibiga iqtisodiy bilim va tushunchalarni singdirish extiyoji vujudga kelmoqda.

Yosh avlodni iqtisodga oid bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biriga aylanib bormoqda. Bu xaqda birinchi Prezident I.A. Karimov shunday degan edi. "...O'quv jarayoniga tadbirkorlik faoliyati, xuquq, soliq, sug'urta asoslari xaqida bilim beradigan fanlarni dadillik bilan kiritish kerak" [377].

Bolalar bog'chalarida iqtisodiy tarbiyani amalga oshirishning mazmun mohiyatini aniqlash maqsadida biz MTMLlarda tarbiyalanuvchilar uchun mo'ljallangan "Maktabqacha yoshidagi bolalar ta'lim – tarbiyasiga qo'yiladigan davlat talablari" , "Bolajon tayanch dasturini amalyotga tadbir etishga yo'naltirilgan qo'llanmada "Elementlar matematik bilim va ko'nikmalar" , "Atrof olam to'g'risidagi bilimga ega bo'lishi va uning anglash" bo'limidagi iqtisod, tejankorlikka oid berilgan reja va dasturni o'rganib chiqdik.

Ma'lumki, maktabgacha ta'lim muassasida "Tasviriy faoliyat", "Atrof olam bilan tanishtirish" to'g'risidagi bilimga ega bo'lish, o'simkliklar, xayvonot olami, yer-suvga bo'lgan munosabatlar, bolalar shaxsiy va jamoa mulkiga nisbatan extiyotkorlik, uni asrab – avaylash kabi sifatlarni shakllantirish, elementar matematik tasavvurlarni o'stirishda esa ayrim matematik tushunchalarni bolalarga singdirish kiritilgan. Shuningdek, "Bolajon" o'quv qo'llanmasining "Atrof olam to'g'risidagi bilimga ega bo'lish va uni anglash" bo'limi xamda "Atrof – olam bilan tanishtirish" kabi mavzularni o'rganish mashg'ulotlarida xam iqtisodiy tushuncha (tejamkorlik-yaxshi odat, nima yaxshi-yu, nima yomon, pul nima?, bank nima, bozor turlari, do'kon turlari, nima qayerda ishlab chiqariladi, ishlab chiqarish va uning turlari, maxsulot nima? inson yashash uchun zarur bo'lgan extiyoj, men kim bo'lmoqchiman? va b.q.)lar tilga olingan. Ammo bu xarakatlar maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning iqtisodiy tarbiya borasidagi bilimlarini oshirishda davr talablariga javob bera olmaydi. Shuning uchun xam O'zbekiston Respublikasida xalq ta'limi vazirligi , 1996-yil 17-avgustda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi uzluksiz ta'lim-tarbiya Konsepsiyasi"ga binoan Respublika xalq ta'limi vazirligi respublika Ta'lim Markazi tomonidan "Bolalar bog'chasida ilk iqtisodiy ta'lim tarbiya dasturi" qabul qilindi.

MTM tarbiyalanuvchilariga ilk iqtisodiy ta'lim berishdan maqsad shundan iboratki, ular jamiyatimiz xayotida ro'y berayotgan voqelikni birdaniga ilg'ab olishga qiynaladilar. Qolaversa, ularning yosh xususiyatlari va rivojlanish darajalari bunga monelik qiladi. Boz ustiga jamiyat xayotidagi iqtisodiy o'zgarishlarni MTMdagi ta'lim jarayoni o'zida aks ettirilmasa tarbiyalanuvchilar rivojlanishdan orqada qoladi. Chuhnonchi, tarbiyalanuvchilar kundalik xayotda duch keladigan iqtisodiy tushunchalar MTMda olib boriladigan mashg'ulotlarda, xar bir ko'rgazmali vositalarda o'z ifodasini topmasa, tarbiyachisi pedagoglar mujassam mashg'ulotlar jarayonida ularning mazmun- moxiyatini izoxlab bermasa MTM bolalari mazkur tushunchasi mazmunini anglab ololmaydilar.

MTM tarbiyalanuvchilariga bozor iqtisodiyotga oid bilimlar xaqida dastlabki tushunchalarni berishda tarbiyachilar, albatta moddiy boylik xalol mexnat orqali shakllanishi ular ongiga singdirishlari lozim.

MTMda tarbiyachi pedagoglar mujassam mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish jarayonida iqtisodiy ta'lim (tushuncha) singari o'quv materialini tanlash, uni tarbiyalanuvchilarga tushuntirishning eng optimal usul va uslublari ustida bosh qotirganda u nafaqat o'quv dasturini bajarishni, balki tarbiyalanuvchilarda iqtisodiy tushunchalar va ko'nikmalar, mulkka xo'jaynilik qilish sifatlarini xam shakllantirish ustida qayg'urishlari kerak.

Shu boisdan xa MTM tarbiyachilari mujassam mashg'ulotlarning an'anaviy vazifalarini xal qilish bilan birga quyidagilarni amalga oshirishlari zarur, yani:

- tarbiyalanuvchilarda mavjud bo'lgan iqtisodiy tushunchalarni aniqlashtirishi va chuqurlashtirishi, ularda bilimlarini amaliyotda qo'llash bo'yicha ko'nikmalarni rivojlantirish;

(loy, mato, qog'oz bilan ishlaganda uni tejab – tergab ishlash, uni tez va chiroyli qilib bajarish, material va vaqt sarflarini xisobga olish

- Mashg'ulotlarda o'rganilayotgan materialni xayot bilan, oilaviy pudrat, oilaviy biznes va h.k kabi kun tartibiga quyilgan vazifalar bilan bog'lash;

- amaliy mashg'ulotlarda ishlab chiqarish – iqtisodiy mazmunga ega bo'lgan masalalar tuzish va yechish, reja, ish joyini to'g'ri tashkil etish, mexnatni ilmiy tashkil etish elementlarini joriy etishdan foydalanish;

- tejamkorlik, xisob – kitoblarni, tartiblikni, ma'suliyatlilikni va shaxsning boshqa iqtisodiy sifatlarini tarbiyalash;

- Tarbiyalanuvchilarga mexnat jarayoni va uning natijalarini taxlil qilishni, uning samaradorligini oshirishning rezevrlarini axtarishni o'rganish; va h.k

MTMda o'tkaziladigan turli – tuman mashg'ulotlarda iqtisodiy tushunchalarni muvaffaqiyatli shakllantirishni ta'minlash tarbiyachi pedagoglarning o'zlaridan qo'yidagilarni talab etadi:

- mashg'ulotda o'rganilayotgan iqtisodiy tushunchaning mazmuni va mohiyatini bilishi;

- Tarbiyalanuvchilarning 4-5, 5-6, 6-7 yoshlidagi xa bir bosqichidagi imkoniyatlarini xisobga olish ko'nikmasi;

- Iqtisodiy tushunchalarni shakllantirishning to'g'ri usullari, metodlarini va yo'llarini to'g'ri tanlash ko'nikmasi.

Jamiyatimizda yuksak ma'naviyatli, raqobatbardosh mutaxassis kadrlarni tayyorlashda ta'lim va tarbiya tizimi omiliga to'xtalib, birinchi Prezidentimiz Islom Krimov “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch” asarida “Ta'limni tarbiyadan – tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi – bu shaqona qarash sharqona xayot falsafasi”, deb ta'kidlagan [,62].

MTM tarbiyachi pedagoglari mazku juftlikning, bizning misolimizda “Iqtisodiy ta'lim” va “Iqtisodiy tarbiya>>”, tushunchalarning xar birini mazmun-mohiyatini to'lig'icha anglab olsalargina, ularga o'z pedagogik faoliyalarida amal qilsalargina, bog'chalarda iqtisodiy ta'lim va tarbiya sifat va samaradorligiga erishishlari mumkin.

Iqtisodiy tarbiya iqtisodiy ta'lim bilan yonma-yon turadi. Ular bir-birlariga yaqin tushunchalar bo'lishi barobarida, ularning sezilarli farqlari xam bor.

Iqtisodiy ta'lim iqtisodiyotni, aniq iqtisodiy bilimlarni o'rganish, iqtisodiy xisob-kitob, iqtisodiy taxlil qilish ko'nikmalarini egallash va rivojlantirish jarayoni va natijasi sifatida namoyon bo'ladi.

Iqtisodiy ta'limning eng asosiysi – bu ma'lum bilimlarni egallash va ularni amalda qo'llash, iqtisodiy faoliyatni tashkil etish ko'nikmasi xisoblanadi.

Tarbiyaviy ishlarning vazifasi esa ancha keng va chuqurroqdir. Iqtisodiy ta'lim tarbiyaviy ishlar tizimida birinchi bosqich bo'lib, u barkamol shaxsni shakllantirishni ta'minlaydi. Iqtisodiy ta'lim sog'lom e'tiqodga asoslangan bozor iqtisodiyoti tafakkurini shakllantirish uchun zamin yaratishni ta'minlaydi.

Shuning uchun iqtisodiy tarbiya iqtisodiy bilim, ko'nikma va malakalarini shaxsiy e'tiqodga, ehtiyojga va mamlakatimiz ravnaqi foydasiga samarali mehnat qilishga odatlantirish, shaxsiy manfaatlarni jamiyat manfaatlari bilan muvofiqlashtirish jarayoni va natijasi sifatida namoyon bo'ladi.

Yuqorida bayon qilinganlardan ko'rinadiki, iqtisodiy tarbiya bir vaqtning o'zida ma'lum tarbiyaviy ishning jarayoni va natijasi xisoblanadi. Birinchi galda, bu vaqt ichida kechuvchi faoliyat, iqtisodiy bilim va ko'nikmalarni ortirilish jarayoni, ularni doimiy va uzluksiz ravishda e'tiqodga aylantirishdir. Miqdoriy o'zgarishlar muqarrar ravishda yangi sifatga olib kelishi kerak. Bu rivojlanish oddiygina sodir bo'lmasdan, u qarama – qarshiliklarni yengishi, ma'naviyatimizga yot bo'lgan oqimlar bilan kurashish xamda jamiyatimiz ma'naviyatining yuksalishiga to'sqinlik qilayotgan xodisalar, ma'naviyatimizga yot bo'lgan elementlar bilan kurashish sharoitlarida amalga oshiriladi.

Iqtisodiy tarbiya jarayonida yosh avlodda tejamkorlik, intizom, ishbilarmonlik, tashkilotchilik, ma'suliyati kabi iqtisodiy sifatlar tarkib topishi kerak.

Endi ushbu dasturga muvofiq bolalarni iqtisodiy tushunchalar bilan tanishtirishning mazmuni ko'rib chiqamiz. Ular jumlasiga quyidagi tushunchalar kiradi.

Iqtisod – bu xayot. Bolalarga iqtisodiy tushunchalarni berish orqali ularning yashash xaqidagi taasurotlarini shakllantirish. Inson yashashi uchun zarur bo'lgan

xayotiy ehtiyojlar – kiyinish, ovqatlanish, o'yinga bo'lgan ehtiyoj, mehnat ehtiyojining mavjudligi. Ikki ehtiyoj turning bir- biri bilan bog'liqligi. Yashash uchun shart - sharoit.

Ishlab chiqarish va mehnat. Mehnat – ishlab chiqarishning inson xayotidagi asosiy faoliyati ekanligi. Ish kuchi insonning mehnat qilishiga qaratilganligi. “Mehnatdan kelsa boylik, turmush bo'lar chiroylik”, “Jismoniy va aqliy mehnat. Mehnat qo'llari. Mehnatga munosabat”

Milliy boylik. Avlotlar mehnati bilan yaratilgan muayyan jamiyatning, millat va ellat boyligi. Milliy boylikning yaratilishi, ishlatilishi va qayta yangidan tiklanish. O'rta Osiyoda qadimiy kasbkorlar. Yangi kasblar, eskilarining yo'qotilishiga sabab bo'lgan xollarning taxlili. Me'morchilik, xunarmandchilik borasida xaqiqiy san'at namunalarini yaratgan xalq ustalari. Milliy boylikning yaratilishidagi ikki manba: 1. Mehnat maxsuloti. 2. Tabiat in'omi va h.k.

Mulkiy munosabatlar. Mulkchilik nima ? mulkchilikning shakillari: a) davlat mulki; b) shaxsiy mulk; Mulkchilikning o'zlashtirilishidagi uch asosiy manba; 1.Mulkga egalik qilish. 2. Mulkdan foyda olish. 3. Mulkni sotish, merosga qoldirish, asrab avaylash, ko'paytirish.

Bozor. Bozor sotuvchi va xaridorning muomala qiladigan joyi. Bozor ishtirokchilari; a) sotuvchi, b) xaridor. Sotuvchi o'z maxsulotini sotadigan shaxs.

Xaridor-xayotida o'z ehtiyojini qondirish uchun maxsulot sotib oluvchi shaxs.

Bozor turlari: a) dexqon bozori; b) kiyim – kechak sotadigan joy; v) istemol (oziq – ovqat) sotadigan joy; g) ularning bir – biridan farqi, bozorda amalga oshiriladigan savdo.

Savdogar kim? Uning axloqiy sifatleri; a) xalollik; b) to'g'ri so'zlik; v) uddaburonlik; g) xalq manfaatining o'ylash.

Do'kon. D'konning bozorlardan faqri. Do'konning turlari. Savdoning kishilar uchun axamiyati va ularga xizmati.

Pul. Pul - xamma maxsulotlar, xizmatlar ayirboshlanadigan asosiy muomala vositasi. Pulning paydo bo'lishi. Odamlarning pulga bo'lgan ehtiyojini rivojlanishi.

Pul bajaradigan ishlar; a) mumola vositasi; b) jamg'arma vositasi; v) pulning qadr qiymati; g) milliy pul birligi; d) pulni asrash va tejash.

Bolalar bog'chasida ilk iqtisodiy ta'lim – tarbiya” dasturiga ko'ra katta gurux bolalariga sakkiz xil iqtisodiy tushuncha (iqtisod, mexnat, boylik, mulkiy munosabat, tadbirkorlik, tovar, pul, maxsuloti bilan tanishtirishning mazmuni berilgan.

Iqtisod – bu xayot. Bolalarga iqtisodiy ma'lumotlar berish orqali inson xayoti xaqidagi tasavvurlarni kengaytirish. Extiyojning inson xayotidagi axamiyati. Moddiy extiyojlar – tabiiy extiyojlar ekanligi, ularning zarurligi, moddiy ko'rinishi (masalan, tarbiyachi va vrach) Umum jamiyat, umuminsoniy extiyojlarni asrash, a) Tabiiy boyliklarni asrash b) xarbiy muxofaza. Extiyojlarning xayot kechirish sharoitiga bog'lik bo'lmasdan, balki unga xos tarixiy an'analar, milliy udumlar bilan bog'liqligi.

Inson o'zi yashashi uchun moddiy extiyokni qondirish jarayoni.

Yashash uchun shart – sharoitlar.

Ishlab chiqarish mexnati.

Inson faoliyati va jamiyat faoliyatining muxim tomoni uning ishlab chiqarish ekanligi. Ishlab chiqarishning ikki ko'rinishi/;

1. Moddiy ishlab chiqarish (oziq – avqat, kiyim – kechak, turar joy, transporti, qurilish, qishloq xo'jaligi).

2. Ishlab chiqarishning boshqa xil ko'rinishi – inson uchun zarur bo'lgan xizmatlar. Bu ikki ko'rinishining bir – biri bilan bog'liqligi. Insonning jamiyatdagi mexnati.

Milliy boylik. Milliy boylik xaqida bilim, tasavvurlarni kengaytirishda davom etish. Milliy boylik: a) yaratish; b) ishlatish; v) qayta tamirlash; g)jamg'arish.

Milliy boylik. Milliy boylik xaqidagi bilim, tasavvurlarini kengaytirishda davom etish. Milliy boylik: a) yaratish; b)ishlatish; v) qayta ta'mirlash; g) jamg'arish.

Milliy boylikni inson faoliyati ta'sirida bo'lishi, boylikni asrash, tarixiy boylikni asrash, uni avlodlarga qoldirish jarayoni.

Davlat mulkiga munosabat, jamiyat extiyojini qondirish uchun milliy boylikning sarflanishi (tabiiy resurslar) uni ishlatilgan inson mexnati bilan yaratilgan narsalar o'rnini to'ldirishda insonning mexnati, ijodkorligi. Milliy boylikning o'sish manbalari.

Mulkiy munosabatlar.

1. Mulkchilik: Inson bilan boylik o'rtasidagi munosabat.
2. Boylik xususida insonlar o'rtasida yuzaga keladigan munosabat.
3. Xar bir inson o'z mulki orqasidan kun kechira olish jarayoni; dexqonchilik qilish, yerni ijaraga berish....

4. Mulkchilik egalari: kishilar, oilalar, jamoalar, davlat mulkning tejankorlikning yuzaga kelishi sabablari. Mulk shakllari: a) shaxsiy mulk, b) davlat mulki, g) maxalla mulki, d)oilala mulki.

5. Milliy mulkning milliy boylikka aylanishi: biznes va tadbirkorlik.

Biznes - ishbilarmon kishining faoliyati. Biznesmen kishi kim?

Tadbirkorlik – insonning pul va moddiy mablag'larini daromad topishiga mo'ljallangan iqtisodiy faoliyati. Tadbirkor bilan biznesmenning farqi. Tadbirkor, biznesmen bo'lishining qoidalari.

Firma nima? Firmaning faoliyati. Reklama, uning zarurligi. Tadbirkorlik, ishbilarmonlikning axamiyati.

Bozor: Bozorning moxiyati va vazifalari. Bozorning tuzilishi. Erkin bozor, mexnat bozori, birja. Savdo firmalari, qimmatbaxo qog'ozlar bozori (aksiya, bank), kupon, chayqov bozori.

Tijorat nima? Firma nima? Savdo – sotiqdagi foyda.

Pul: Pulga extiyoj. Pulning qadr – qiymati. Narx darajasi maxsulotga narx qo'yish. Narx – navo nima? Narxlar nimaga bog'liq, uni qanday o'zgartirish kerak? Valyuta.

Maxsulot: Insonning buyumlarga extiyoji yoki xomashyo. Mexnat maxsulotining maxsulotga aylanishi. Maxsulotni bozorda maxsulotga yoki pulga

ayrboshlanishi. Maxsulot va uning sifati. Xar bir maxsulotning inson extiyojini qondirish xususiyati. Maxsulot ishlab chiqarishda sarf bo'lgan mexnat. Ish vaqti, ish o'rni. Mexnat sifatining maxsulot sifatiga ta'siri va bog'likligi.

MTMda barcha tayyorlov guruxlari 6-7 bolalari uchun dasturining mazmuni.

Inson.

Xayot.

Iqtisod.

Inson yashashi uchun zarur extiyoj. Oziq - ovqat, kiyim – kechak, yorug'lik, issiqlik, suv, xavo, ularning inson xayotidagi axamiyati. Insonning moddiy qiymatlari va yashash uchun shart sharoit yaratish, insonlarning bir-birilari bilan kasbiy muloqoti – extiyoj sifatida. Xarakat inson xayoti asoslari.

Mexnat: Mexnat – inson xayotining asosi va extiyojini ta'minlovchi manba, Insonning jamiyatdagi mexnati. Jismoniy va aqliy mexnat. Ularning bir-biridan farqi va o'zaro bir-biri bilan bog'likligi. Mexnat qilish uchun shart – sharoitning mavjudligi. Mexnat va dam olish, salomatlikni muxofaza qilish. Sog'liqni saqlashning zarurati. Bu borada davlatda mavjud bo'lgan muassasalar to'g'risida tushuncha berish.

Oila. Uy xo'jaligi: Uy xo'jaligi xaqidagi ma'lumot berish. Uy xo'jaligi xayotiy extiyoj sifatida. Uy xo'jaligi jixozlari. Xujalik mollari, tomarqa, bog', uy xo'jaligi asosiy extiyojni qondirish manbai. Uyda taom tayyorlash, inson uchun zarur narsalarning uyda tayyorlanishi. Uy sharoitida dam olish.

Oila nima degani? Oila nima uchun kerak. Katta oila, kichik oila. Oilada farzandning burchi.

Jamiyat: Jamiyatda insonlar extiyoji uchun ishlab chiqarilgan narsalar. Qo'l mexnati va mashina ishlab chiqargan narsalar ishlab chiqarish (zavod, fabrika, sex, va b.q) da, qishloq xo'jaligida ishlab chiqariladigan narsalar, turli extiyojlarni qondirishning vositalari sifatida. Do'kon, umumiy oshxona, restoran, kafelarni inson extiyoji uchun asosiy manba deyish mumkinmi?

Munosabat. Aloqa. Kishilarni bir-birlari bilan qiladigan munosabatlarini vositasi-pochta, telegraf, telefon, radio xaqida ma'lumot berish. Aloqa vositalari, ularning tarixiy rivojlanishi. Avtomobil, temiryo'l transportlari, xavo yo'llari, inson xarakati vositalari sifatida. Transport vositalari rivojlanishi tarixi.

Ma'naviyat: Kishilarni ma'naviy oзуqaga bo'lgan extiyoji. Xabarlar, kitoblar, radio, televidiniya, kino, teatr kishilar ongini rivojlanishi uchun va kundalik yangiliklari uchun asosiy manba sifatida. Kishilar xayotini farovonlashtirishda ilm – fan, texnika, axborot vositalarining axamiyati.

Kishilarning so'glilari qay yusunda, kim tomonidan ximoya qilinadi?

Tabiiy sog'likni saqlash muassasalari, salomatlikni saqlash va kasalliklar bilan kurashishining asosiy posbonlari, poliklinika (oilaviy poliklinikalar), kasalxonalar, sog'liqni saqlash punktlari, sanatoriyalar. Vrachlar, sanitarlar, xamshiralar qanday faoliyat bilan shug'ullanadilar? Sog'liqni saqlash borasida dorixona xamda dori – darmonlarning axamiyati. Kimlarga va qachon "Tez yordam" xizmat ko'rsatiladi? Uy sharoitida davolanish. Doim sog' bo'lish uchun nima qilish keak?

Qoida va tartibni saqlash: Jamiyatda tartib va qoidani saqlash xamda kishilarni xavf – xatardan saqlash. Qurolli qo'shinlar, milisiya, o't uchurish, qutqaruv organlarining jinoyatchilikni oldini olish va fuqaro xavfsizlikni ta'minlash maqsadidagi ishlar.

Kishilarning xavfsizligini ta'minlash uchun kim bilan kurash olib boriladi? Ishlab chiqarishdagi texnik xavfsizligini kim ta'minlaydi. Kishilarning ko'chada, o'qishda, uyda xavf – xatardan xoli bo'lishlarini kim ta'minlaydi?

Boshqaruv: Xo'jalikni kim boshqaradi? Boshqaruv organlari nima? Uy xo'jaligini kim boshqaradi. Firma, maktab, do'kon qanday boshqariladi.

Boshqaruv to'g'risida kim qonun chiqaradi. Shaxar, qishloq, maktablarda iqtisodiy qoidalarning buzilmasligiga kim javobgar?

Savdo: Kishilar o'zlari uchun zarur bo'lgan narsalarni qayerdan va qanday sotib oladilar, savdo nima? U kishilarga qanday xizmat qiladi? Pulning kelib chiqishi, kishilar nima uchun bir mulkni ikkinchisiga almashtiradilar?

Bozor so'zining ma'nosi nima? Sotuvchi va xaridor qayerda uchrashadilar? Savdo, oldi-sotti qayerda bo'ladi. Bozor turlari. Do'kon bozorlardan murakkabligi va hamma jihatdan farq qiladigan savdo tarmog'i sifatida.

Oziq – ovqat va kiyim-kechak do'konlari, savdo markazlari, yarmarkalar, kim ochdi savdosi, mavsumiy sotuvchilar. Barter nima? savdogarlarning do'kon sotuvchilardan farqi, savdodagi xalollik.

Pul: Pul nima? Insonning pulga bo'lgan extiyoji. Pul zaruriyati. Pul to'lov vositasi sifatida.

Pulning kelib chiqishi va tarixi to'g'risida ikki so'z. Pulning turlari. Pul birliklari nima? pul bilan qilinadigan muomalada kimlarga nima e'tibor qilinishi kerak. Pul qayerdan keladi. Pul qaysi yo'l bilan kishilarning qo'lga tushadi? Nima uchun biz pulni avaylaymiz? Bolalarga pul kerakmi? Pulni nima uchun to'lash kerak?

Tovar olish jarayonida sotuvchiga qancha pul to'lash kerak? Narxlar nimaga qarab o'zgaradi. Buyumning arzon yoki qimmat turishini qanday bilsa bo'ladi. Xarid vaqtida sotuvchi bilan savdolashish kerakmi? Tovarining narxini faqat sotuvchi belgilaydimi? Qimmat narsa doim xam sifatli bo'ladimi?

Maxsulot: Buyumlar nimalardan yasaladi? Xomashyo to'g'risida dastlabki tasavvurini berish. Ularning turlari. Xomashyo asosiy tabiiy material sifatida. Issiqlik, suv, xavo yordamida xomashyoga ishlov berish. O'simliklardan olinadigan xomashyolar. Sun'iy, kimyoviy materiallar. Qurulish ashyolari Oziq-ovqat maxsulotlari qaysi xom ashyodan ishlab chiqiladi. Non, kolbasa, pishloq, konfet, qazi va shirinliklarning asosiy tayyorlanishi nimalardan iborat. Birinchi, ikkinchi, uchinchi ovqatlar nimalardan tayyorlanadi? Bosh kiyim, poyafzal, kiyim-kechaklar nimalardan tikiladi? Sun'iy va tabiiy tolalar xaqida ma'lumot berish. Ulardan qanday kiyim-kechak va poyafzal tikiladi. Mashinalar qanday xomashyodan yasaladi. Uning qaysi bo'lagi nimadan ishlab chiqilgan. Plastmassa, taxta, temir, mato, shisha, rezina.....

Qanday xomashyodan ro'znoma, kitob va daftarlar tayyorlanadi. Qog'oz ishlab chiqarish va qog'ozning xususiyati to'g'risida tushuncha berish. Ovozli

musiqiy tovushlarni nimaga yozish mumkin. Foto surat, rasmlar qanday matoda o'z aksini topadi? Rassomlar qanday matoda o'z faoliyatlarini amalga oshiradilar? Bir necha xil ashyodan bir maxsulot ishlab chiqarish xaqida ma'lumot berish. Qaysi yo'llar bilan buni amalga oshirish mumkin? Misol uchun bug'doy un, go'sht-qiyma, sut-qaymoq, tun, ip, qum, suv, sement, beton va boshqalar. Tayyor va yarim tayyor maxsulot sifatida qabul qilish mumkin bo'lgan maxsulotlar xaqida ma'lumot berish. Uning tozaligi, maxsuldorligi, ixchamligi bilan yaratilganligi, ozuqa bo'lsa to'yimliliigi. Bu- belgilarning maxsulot sifatiga ta'siri.

2.2 Nutq o'stirish tevarak atrof kattalar mehnati bilan tanishtirish jarayonida bolalarda tasavvur va tushunchalarni tarkib topdirish

“Bolajon” tayanch dasturi asosida o'tkaziladigan mashg'ulotlarda tayyorlov guruhi bolalarida iqtisodiy tasavvur va tushunchalarni shakllantirish imkoniyatlari.

Jamiyatimizda yuksak ma'naviyatli, raqobat bardosh mutahassis kadrlarni tayyorlashda ta'lim-tarbiya omiliga tuxtalib, Prezident I.A.Karimov “ Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch” asarida “Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bulmaydi – bu sharqona qarash,sharqona hayot falsafasi, deb ta'kidlagan.

MTM tarbiyachi pedagoglari maskur jihatdan, bizning misolimizda, iqtisodiy ta'lim va iqtisodiy tarbiya tushunchalarining har birini mazmun-mohiyatini tulig'icha anglab olsalargina, ularga uz pedagogik faoliyatlarida amal qilsalargina, bog'chalarda iqtisodiy ta'lim va iqtisodiy tarbiyaning sifati va samaradorligiga erishishlari mumkin.

Iqtisodiy ta'lim iqtisodiy tarbiya bilan yonma-yon turadi. Ular bir-birlariga yaqin tushunchalar bulishi barobarida ularning sezilarli farqlari ham ko'zga tashlanadi.

Iqtisodiy ta'lim iqtisodiyotni, aniq iqtisodiy bilimlarni urganish, iqtisodiy hisob-kitob, iqtisodiy tahlil qilish kunikmalarini egallash va rivojlantirish jarayoni va natijasi sifatida namoyon buladi. Iqtisodiy ta'limda eng asosiysi – bu malum bir

bilimlarni egallash, ularni amalda qullash, iqtisodiy faoliyatni tashkil etish kunikmasini tarkib toptirish hisoblanadi.

Iqtisodiy ta'lim tarbiyaviy ishlar tizimida birinchi bosqich bulib, u barkamol shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi. Iqtisodiy ta'lim sog'lom etiqotga asoslangan bozor iqtisodiyoti tafakkurini shakllantirish uchun zamin yaratishni taminlaydi . Shuning uchun iqtisodiy tarbiya iqtisodiy bilim, kunikma va malakalarni shaxsiy e'tiqotga, ixteyjojga va mamlakatimiz ravnaqi uchun eng avvalo samarali mehnat qilishga odatlantirish, shaxsiy manfaatlarni jamiyat manfatlari bilan uyg'unlashtirish jarayoni va natijasi sifatida namoyon buladi. Demak, iqtisodiy tarbiya jarayonida yosh avlodda, shu jumladan bog'cha bolalarida tejamkorlik, imtizom, tadbirkorlik, tashkilotchilik, ishga ma'suliyat, mehnat sevarlik, mehnat kishilariga hurmatda bulish kabi ilk iqtisodiy sifatlar shakllana boshlaydi.

Ushbu nuqtai nazardan "Bolajon" tayanch dasturini sinchkovlik bilan urganish va tahlil qilish natijalarini kursatishicha "Katta guruh" (5-6 yoshlilar) "Tayyorlov guruh" (6-7 yoshlilar) uchun kuzda tutilgan mashg'ulot ("Atrof – olam bilan tanishtirish", "Tarbiya bilan tanishtirish", "Nutq ustirish", "Badiiy adabiyotlar bilan tanishtirish", "Applikasiya", "Loy ishi" va h.k) lar bog'cha bolalariga iqtisodiy ta'lim-tarbiya berishga bevosita yunaltirilganligidan dalolat beradi. Shu munosabat bilan maskur dasturda bayon qilingan mavzu, savollarni bog'cha bolalariga iqtisodiy ta'lim-tarbiya berish imkoniyatlari nuqtai nazaridan tafakkur qilindi. Yuqorida takidlanganidek, "Bolajon" tayanch dasturida "Kichik guruh" (3-4), "O'rata guruh" (4-5), "Katta guruh" (5-6) kabi "Tayyorlov guruhi" (6-7) uchun ko'zda tutilgan "Atrof-olam bilan tanishtirish", "Tabiat bilan tanishtirish" "Nutq, o'qitish va savodga tayyorlash" "Kattalar mehnati", "Jonli va jonsiz tabiat" va b.q. bo'limlar mazmuni tayyorlov guruhi bolalariga iqtisodiy tasavvur va tushunchalarni shakllantirishni ko'zda tutmagan.

Shu bois magistrlik dissertasiyamiz oldiga qo'yilgan maqsaddan kelb chiqib, mazkur bo'limlar mazmuniga iqtisodiy yo'natirilgan mazmun kiritish bilan bog'liq materiallarni qarashga o'tamiz. Jumladan, nutqning tovush madaniyatini

shakllantirish mavzusi savollarini bolalarga o'rgatish jarayonida unli va undosh tovuchlar bilan boshlanadigan iqtisodiy tushunchlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Shu bois bog'cha bolalarida h,k,r,s,o', kabi tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish iqtisodiy tushunchalar bilan qushib olib borish:

H: harajat, hisob-kitob, homiy va h.k.

K: korxonalar, kasb, kadr, kal'kulyatsiyalash, kredit va h.k.

R: raqobat, reja, rejalash, reklama, restoran, rentabillik va h.k.

S: saralash, standart, sifat, samaradorlik va h.k.

O': o'zini-o'zi moliyalash va h.k.

Lug'at tuzish. Mavzular bolalar lug'atga, buyumlar, ular qanday maxsulotlar (Yog'och, chinni, plastmassadan) dan tayyorlanganligi, sifati va ularning vazifasini bildiruvchi so'zlarni kiritish kuzda tutilgan: davlat sifat nazorati; tayyor maxsulot sifati; tayyor maxsulot ishlab chiqarish; texnologik mexnat intizomi; bank me'yorlari; mexnatni tashkil etish; mexnatni ximoya qilish. Dasturni "Tovush" , "So'z" , "Gap" so'zlarini tushunishga, uyinlarni amaliy mashqlarda qullash urgatishni davom etish, ikki so'zdan gap tuzishdan bog'cha bolalarini jalb qilish asqotadi. Masalan, Tovar baholanadi, Tovar sotiladi, chakana narx qo'yiladi, qul mehnati, mashina mehnati, menat qurollari va h.k gaplarni ko'rsatish mumkin.

Undosh tovushlar bilan ataladigan kasblar bilan bog'liq iqtisodiy tushunchalar

Jarangli tovushlar bilan Ataladigan kasblar	Jarangsiz tovushlar bilan Ataladigan kasblar
b- bo'yrachi (buyrabof, buyralush), baxmalchi (baxmalbof), beshiksoz, betonchi, bog'bon – o'simlikshunos, bo'yoqchi, bankir, bo'zchi	p- paxtakor, pillakor, pichoqchi, paxta terish mashinasi mexanik haydovchisi, paxta tozalovchi (jinchi – linterchi), pazanda, pilla bog'lovchi, parketchi, parrandaboqar operator, provazor

<p>d- darboz, degrezchi, do'kchi, do'ppi do'z, duradgor, dastaki elektir payvandchi, dorivor o'simlilarni yig'uvchi, dermatovenerolog</p> <p>v- veterinary (kichik vetfeldsher),</p> <p>g- gilam to'quvchi, gulchi, gaz molar pardozlovchisi, gips pishiruchisi, ganchkor</p> <p>j- jibachi, jilvirlovchi, juvozchi, jinchi – linterchi (paxta tozlovchi, jarroh</p> <p>z- zardo'z, zargar</p> <p>g'- g'allakor, g'isht teruvchi, g'isht pishiruvchi</p>	<p>t- tegirmonchi, telpakdo'z, terapevt, tokar, teplovoz mashinisti yordamchisi, traktorchi, tarbiyachi, temirchi, tikuvchi, to'quvchi, tuproqshunos laborant, tibbiyot laboranti</p> <p>f- frezalovchi, fazogir, fotograf, farmakolog, farmasevt assistenti</p> <p>k- kamonchi, kunchi, konbayichi, kosagar, koshinkor, kulol, ko'kcha, konditer, kulinar, kutibxonachi, ko'chatchi laborant</p> <p>ch- charmchi, chilangar, charxchi, chorvador, cho'yanchi, cho'pboz, chinnipaz, chegarachi</p> <p>sh- shishapaz, sholikor, shifokor</p> <p>s- sabzavotchi usta, sandiqchi, suvoqchi, soatsoz, sartarosh, sotuvchi, stomatolog, slisar – santenik, sovitish qurilmalari mashinisti</p> <p>x- xundon, xumdonak (spol idishlar tayyorlash kasbi), ximiyaviy tahlil laboranti</p>
--	--

Unli tovushlar bilan ataladigan kasblardan ayrim namunalar

A- agrokimi laboranti, aravachi, asalarichi, armaturachi, asbobsoz smsor, avtokranlar mashinisti, avtomobillar remonti smsori

O- objuvoz, operator (aloqa operatori, parrandaboqar operatori), ofisiant, oshpaz

I- Ipak bozor (zardo'zlik kasbi), issiqxona va parniklar operatori, ip yigiruvchi operatori

E- elektrgaz payvandchi, elektr pechda pulat quyuvchi, erituvchi, etikchi, etikdo'z, entimolog laborant, egarchi,

U- usta bog'bon, uchuvchi, uzumchilik agronomi, umumiy amaliyot feldsher

O'- o'zi yurar skreper mashinisti, o'ymakor, o'rmon xo'jaligi texnigi, o'qituvchi, o'simlik shunos – fermer – chorvador, o'qchi

Bog'cha bolalarining “Pul” tug'risida tasavvur tushunchalarini kengaytirish maqsadida ularga tanga qog'oz pullar muomila vositasi sifatida ite'molga kiritilguncha kishilik jamiyat masalliq (Xurmo, choy, tuz, qattiq non, guruch, bug'doy, qurtob va h.k) pullardan foydalanganiga doir hali pedagogik muloqatga kiritilmagan qiziqarli materiallarni keltiramiz. Mazkur materiaallar bog'cha tarbiyachisi pedagogic faoliyatida bolalarga suhbat, o'yin mashg'ulotlari shaklida yetkazishda asqotadi.

Haqiqatdanham metall tangga-chaqalar va qog'oz pullar zarb etilganga qadar turli mamlakatlarda bozor-uchar, oldi – sotti ishlari ovqatlarga solinadigan masalliqlar vositasi bilan amalga oshirilgan. Mol ayir boshlash, sotish va harid qilishda xar joyda har xil masalliqlar faqat baho etalonigina emas, hatto og'irlik o'lchovi sifatida ham qullanilgan. Misol uchun Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy va boshqa O'rta Osiyolik olimlarning asarlarida dori-darmonlarni qadoqlovhi o'lchov sifatida danak (o'rik danagi), javza (yong'oq), bavza (bodom), shiara (arpa doni), nukot (nuxot), bokillo (loviya), aruza (guruch) kabi masalliqlar qadoqlas vazifasini utaganligini bilib olamiz.

Masalliqlar pul vazifasini o'taganligi tug'risida ham boy materiallar mavjud.

Xurmo “pul”. Bir vaqtlar arab mamlakatlarida kuchmanchilar uchun pul vazifasi xurmo mevasi utagan. Suvsiz sahrolarda o’sadigan birdan-bir meva xam shu bo’lganligidan uning qadri baland bo’lgan.

Choy “pul”. Mug’ulitonda O’rta asrlarda bir bulak taxta choyga bitta quy yoki echki, yohud ikkita teri yoki yo bitta kegiz almashtirish mumkin bo’lgan. Bu holni Marko Polo o’z sayohatnomasida qayd qilib utadi.

Tuz “Pul”. Ulug’ rus olimi M.V.Lomonosov o’z asarlarining birida Efiopiyada mushtday-mushtday turt bo’lak tuzga bitta qulni almashtirish mumkin bo’lanini yozadi. Bu voqea ollim yashagan XVIII o’rtalariga to’g’ri keladi. Tuzning pul vazifasini bajarganligini akademik A.Y.Fersmon ha tasdiqlaydi. Uning yozishicha afrika qit’asining tuz tanqis bo’lgan joylarida bir hovuch tuzga bir hovuch tillo almashtirish mumkin bo’lgan. Ya’ni bu voqea bundan bir asr muqaddam sodir bo’lgan. Usha kezlarda Afrikaga brogan sayohatchilarni aytishicha tuz pul vazifasini o’tashi bilan birga tuzdan pul yasalganligi to’g’risida ham yozishadi. Ya’ni tuzning katta krestallaridan eni 5 sm, uzunligi esa 65 sm, og’irligi 640 gr, keladigan taxtakach qirqib olib to’rtga bo’linadigan qilib tayyorlanar ekan. Manashunday tuz pullar bozorlarda harid vazifasini bajargan, kimga nima kerak bo’lsa, butunligicha yoki bir bo’lagini “Qirt” yetkazib, sindirib berib, olib ketaverarkanlar. Marko Polo XVIII aasrda tuz pullarini qanday tayyorlanishlarini Xitoyga borib o’z ko’zi bilan ko’rgan.

Qattiq non “Pul”. Bozordagi oldi-sotti muomilasida pul vazifasini qattiq non o’taydi. Non ma’lum kattalikda qilib, kesilib, pechkada qurutilib suxari qilishgan, bunga xoxlagan narsasi almashtirib olaverish mumkin bo’lgan.

Guruch, bug’doy, mayiz, qurtob, non “pullar”. O’tmishda O’zbekistonda bosqinchiliklar va o’zaro urushlar ko’p bo’lib turgan, xon va sultonlar tez-tez yangilanib turgan. Manashu voqealar pul kursining pastlab yoki yuqorilab ketishiga sabab bo’lgan. Shu sababli ba’zi chekka qishloq bozorlarida pul etaloni vazifasini guruch, bug’doy, mayiz kabi masalliqlar o’tagan.

Guruch va mayiz tortib berib boshqa narsalar olish urf bo’lgan. Chunonchi ikki qadah guruchga yoki to’rt qadah mayizga bir qadah go’sht kabi. Yoki

tarozining bir pallasiga mayiz, bir pallasiga esa bug'doy solib almashtirilgan. Yoinki birov-birovdan bug'doy qarz olgan bo'lsa, tanga pul yoki mayiz berib qarizidan halos bo'lgan.

Qurtob bir vaqtlar suzmadan yong'oq kattaligicha qilib yumalatib oftobda qurutilgan qurtoblar ham mayda chaqa vazifasini o'tagan. Chunonchi, boqqoldan biron narsa harid qilinsa, zarb qilingan pulga sotilgan, ammo ko'pincha qaytimiga baqqollar tanga-chaqa o'rniga bir necha dona qurtob berib haridorni rozi qilishgan.

Natural xo'jalik hukm surgan vaqtlarda odamlar o'zlariga kerakli masalliqni boshqa biron masalliq bilan almashtirganlar. Masalan, bir dona anjirni 50 dona bodningg, bir bosh uzumni bir dona nonga almashtirganlar.

Qadimgi O'zbekistonning ba'zi joylarida mardikorlarning haqiga non bilan tulov berilgan. Ishning og'ir-yengiligiga 1 donadan 10 donagacha non berilishiga kelishib olingan. Shu bois "non topish" iborasi hanuzgacha saqlanib qolingan: "Bu bola nonni topadigan bo'lib qoladi, voyaga yetib qo'lidan biron ish keladiganini anglatadi". "Uyga bitta ham non olib kelmaydi" (dangasa, ishyoqmasdan sanqib yuradi, degan ma'noda). Ushbu iboralar nonni mehnatga tulov vazifasini o'taganligidan kelib chiqqanligidan non asosiy ovqat, aziz ne'mat ekanligidan dalolat beradi.

Bog'cha bolalariga oqtisodiy ta'lim berish nutai nazaridan "Bolajon" tayanch dasturini tafakkur qilish, uning "Applikatsiya" mashg'ulotlarida davom ettirish lozimligini yoddan chiqarmaslik lozim. Applikatsiyalarning mazmuni bo'yich, ularni predmetli, syujetli, ornometalli va shriftlilarga bo'linadi.

Predmetli applikasiya kesilgan geometrik shakllar, barglar, mevalar, sabzavotlar, gullar, qo'zi qorinlar, hasharotlardan tayyorlanadi, ularni tayyorlash juda oddit bo'lib tarbiyalanuchilar uchun qiyinchilik tug'dirmaydi.

Syujetli applikasiya, birgina turli-tuman shakllardan iborat, ba'zan ular harakatda bo'ladi.

Ornomentall applikasiya, al'bom, taklifnoma, tabrik otkritkalarini bezash, mehnat ob'yektlariga zeb berishda ishlatiladi.

Tekis applikasiyalar, qog'oz, mato, karton, teri va turli-tuman shakllar kesilib, boshqa materiallardan ularni qog'oz, karton, mato kabi asosga yelimlab yopishtirish orqali tayyorlanadi.

“Bolajon” o'quv dasturi va o'quv qo'llanmasini sinchkovlik bilan o'rganish bog'chada bolalarga iqtisodiy ta'lim va tarbiya berish nuqtai nazaridan fikrlash ularning bu soxada keng imkoniyatlari mavjudligidan dalolat beradi.

Bog'cha bolalarini tarbiyachi pedagog rahbarligida ishiga jalb qilishdan maqsad, ularni mehnat qurol (qaychi, turli rangdagi qog'oz, yelim, qalam, karton)lari bilan tanishtirish, ular bilan ishlash ko'nikmalarini tarkib topdirish kam mehnat harakatlarini bajarib ko'p sifatli applikasiya obyektlarini tayyorlash, ish joyini to'g'ri tashkil etish, vaqt byudjeti va undan ratsional foydalanish, mehnatga va moddiy boylig (qog'oz, yelim, karton, tayyorlanga applikasiya obyekt) larga tejamkorlik munosabatda bo'lish bo'yicha tasavvur, tushuncha bilim va ko'nikmalarni tarkib topdirishdan iborat.

Applikasiya ishlari jarayoni tarbiyalanuvchilarga iqtisodiy ta'lim-tarbiya berish ularda istetik did va mehnat tarbiyasini itegrasiyasi asosida amalga oshiriladi. Chunki, applikasiya ustida ishlash qalam, qaychilar bilan harakat qilishga, kistochka bilan yeim surtish detallarni yopishtirish (biriktirish) va h.k ko'nikmalar egallashga ko'maklashadi. Bolalarning qog'oz applikasiya san'atini kelajakda yog'och bilan ishlashga o'tazish mumkin. Bularni barchasini hisobga olib bog'cha bolalari, maktabga tayyorlov guruhi dasturiga applikasiya kiritilgan. Bolalar bog'chasiida qo'llanilayotgan sensor tarbiya tarbiyalanuvchilariga applikasiya ishini bajaraverib kata va kichik, keng va tor, baland va past, uzun va kalta (kichik), qora va yorqin shakllarni ko'rishga imkon beradi. Ular shakllarni yuqori, past, markazda, chapda o'ngda joylashganini aniqlaydilar.

Bolalarga bir-biridan farq qiluvchi ranglari bir meyorda o'tuvchi turli geometrik shakllarni taqdim etib ular asosida applikasiya tayyorlash, tarbiyalanuvchilarga urgatiladi.

Shunday qilib, applikasiya ishlariga rahbarlik qiluvchi tarbiyachi-pedagog bolalarning har bir amaliy harakatini ularga iqtisodiy ta'lim-tarbiya berish nuqtai nazardan fikrlashi va uni amalga oshirishi lozim.

2.3 O'zida mehnat va mazmuni va iqtisodiy tushunchalarni ifoda etgan xalq o'yinlari, ekskursiyalar

Maktabga tayyorlov guruhi bolalarida iqtisodiy tasavvur va tushunchalarni shakllantirishda ekskursiya, suhbat, sayr, o'yin b.q. asosiy mashg'ulotlar hisoblanadi.

“Bolalar bog'chasida ilk iqtisodiy ta'lim – tarbiya” dasturiga muvofiq “Mehnat” mavzusi bo'yicha “Sog'liqni saqlash muassasalari” dan biriga; “Jamiyat” mavzusi bo'yicha MTM hududidagi korxonalarining biriga; “Ma'naviyat” mavzusi bo'yicha “MTM ma'naviyat va ma'rifat” xonasiga; “Boshqaruv” mavzusi bo'yicha “Marketing savdo do'koni” ; va boshqalarga ekskursiya, sayrlar o'tkazish maqsadga muvofiq.

Shuningdek, “Oila. Uy xo'jaligi”; “Pul” mavzulari bo'yicha MTM tarbiyachi – pedagogning suxbati hamda uning “Fermer xo'jaligi azolarining faoliyati xaqida hikoyasini uyushtirish jois.

Kundalik hayotda yuqorida bayon qilinganlar bilan bir qatorda jonli va jonsiz tabiat (Bog', tomorqa, MTM hududidagi daraxtzor)ga sayr qilish ham bolalarda iqtisodiy tasavvur va tushunchalarni tarkib topdirishda asqotadi.

Yuqorida bayon qilinganlar MTM da maktabga tayyorlov guruhi bolalari eng oddiy iqtisodiy harakterdagi hodisa va o'zaro bog'lanishlarni tushuntirishga qaratilish lozim. Ya'ni, bolalarga ularni ko'ra olishlari, seza olishlari, faxmlashlari uchun sharoit yaratish joiz.

Endi “Sandiqsozlik ustasi Xotam Mardonov bilan iqtisodiy yo'naltirilgan uchrashuv” tavsilotlarini qarashga o'tamiz. Uchrashuvdan maqsad milliy hunarmadchiligimizni qator sohalarida amalga oshiriladigan mehnat operasiyalar bog'cha bolalari yoshiga mos kelishi hisobga olish, sandiqsozlik hamda ustalar mehnati bilan tanishtirish orqali ularda sandiqsozning ish joyi, unda mehnat

qurollarini joylashtirish tartibi, mehnatni tashkil etish, sandiqsozning ish vaqti, maxsulot hajim, mehnat sharoiti, maoshi, maxsulot narxi, xomashyo maxsulotining raqobatbardoshli uchrashuvga korxonalar jihozlari kerak. Xotam Mardonov tayyorlagan Qoʻshqora, Bodom, Nayzali, Tovus kabi sandiqlarning rasmlarining andozasi.

Uchrashuvning borishi:

Tarbiyachi: Bolalar bugun uchrashuvda sandiqsoz usta Xotam bobo Mardonovning mehnat faoliyati bilan tanishamiz. U kishi bogʻchamizga mehmon boʻlib kelganlar. U kishi yoshlik chogʻlarida otasi yasayotgan sandiqlarni havas bilan kuzatib borgan. Xotam bobo ulgʻaygan sari uni qandaydir sehri kuchi oʻziga tortib boshlagan. Shu bois yosh oʻspirinni sandiqsozlikka boʻlgan havasi ortib borgan. U dastlab yogʻoch, tunuka chiqindilaridan kichik qutichalar yasab, ustiga tunuka urib turli xil naqshlar elementlari chizishni boshladi va ustiga simlar qoqib sandiqcha yasadi. Yillar oʻtishi bilan unda sandiqsoz usta boʻlish orzusi tugʻildi. U 15 yoshidan boshlab usta nomi bilan sandiq yasashni mustaqil boshlab, hozirgi kunga qadar oʻz kasb – korini sevadigan, sandiqsoz sifatida halqimizga himmat qilib kelmoqda.

Uchrashuvda usta Xotam bobo Mardonov soʻz olib oʻz yutuqlari sirlari ustida toʻxtalib shunday dedi:

- birinchi galda ish joyimni toʻgʻri tashkil qilish uchun bugun ish yakunida ertangi kunga joy qilib qoʻyaman;
- mehnat qurollarimning – arra, qaychi, bolgʻacha, summa, munchoqlarning har birini ish yakunida birma – bir nazorat qilib, ularni ishchi holatda saqlashga hamda ularni ish joyida maʼlum tartibda (eng koʻp ishlatiladiganlari oʻng tomonimda, yaqinroqda joylashtiraman);
- mehnat operatsiyalarini sifatli va qisqa vaqt ichida bajarish uchun mashq qilib turushdan charchamayman;
- sandiq yasash uchun zarur boʻlgan xomashyo (material)larni ulardan foydalanish tartibiga mos ravishda joylashtirib qoʻyaman hamda ulardan tejab – tergab foydalanishga jiddiy eʼtibor beraman;

- maxsulot narxini arzon qilish yo'llari ustida tinimsiz izlanishdaman;
- men tayyorlagan sandiqlar sifatli va jozibali bo'lsa, u doimo haridorgi bo'ladi, to'y – xashamlar uchun odamlar menga oldindan buyurma berib qo'yadilar.

Xaridorlar mendan ko'ngillari sovumasligi uchun doimo izlanishdaman, sandiqlarning yangi nusxalari ustida ijod qilib, rohatlanaman.

Aziz bolajonlarim, “Mehnat – mehnatning tagi roxat”, deb xalqimiz bekorga aytmaydi-da.

Bolajonlar! Sizlar ham maqollar aytib bera olasizlarmi?

Bolalar: “Hunar – hunardan risqing unar”, “Temirchining qo'lida temir mumdik ezilar” , “Erta turganning ishi erta bitar” , “Qush uchganda, odam mehnatda bilinear” , “Osh desa chopar, ish desa qochar”. Balli bolajonlar. Endi meni usta xonamga kelinglar, men sizlarga sandiq yasashni o'rgataman.

Bola bog'chasi tayyorlov guruhi bolalari bilan olib boriladigan tadbirlarning taxminiy ro'yhati.

/r	Mavzu	Masad	Izoh
	1	2	3
	<p>Tomorqada hosilni yig'ib - terib olish</p>	<p>Kattalar bilan sabzavot (kartoshka, sabzi, karam, pomidor, bodddring va h.k) ni yig'ib - terib olishda qatnashganidan bolalarda xursanchlikni uyg'otish; qancha ko'p kartoshkani kovlab olinganiga (qancha ko'p karamni g'amlab qo'yganiga) qarab maosh ajratiladi; yig'ib – terib olinganlarni sifatli va sifatsizga ajratish; sifatli maxsulotlarni shartnoma</p>	

		asosida oshxona, retoranlarga, qolganlarini bozorga jo'natish; safrlangan xarajat va vaqt hamda maxsulot narxi xaqida tushunchlarni shakllantirish.	
	Sabzavot do'koniga sayohat	Bolalarda kuzda pishib yetilgan sabzavot va polizlarni fermer xo'jaligi ishchilari tomonidan yig'ib – terib olishi tufayli do'konlarda sabzavot va poliz maxsulotlarini ko'plab olib kelinishi tufayli ularning narxini pasayishi, poliz va mirishkorlar ish xaqi, sabzavot va polizlarning sifatiga qarab ularga narx qo'yilishi; ulardan qanday taomlar tayyorlanishi; sotuvchi va xaridorning o'zaro muloqoti haqida tasavvur va tushunchalarni tarkib topdirish.	
	Qishloq xo'jaligi ekinlari maydoniga ekskursiya	Tayyorlov guruhi bolalarida kuz fasli bug'doy, meva va sabzavot va poliz maxsulotlarini yig'ib – terib olish davri ekanligi; bug'doy, meva, sabzavot va poliz ekinlarni o'stirish va parvarish (bahorda yerni haydash, urug' sepish, ko'chat (nihol))ni o'tkazish; yozda parvarish qilish; kuzda hosilni yig'ib – erib olish bo'yicha fermer xo'jaligi xodilarining mehnati; bunda qo'llanadigan mehnat qurollari, mehnat sarfi, ish xaqi, vaqt, narx, hosildorlik to'g'risida tasavvur va tushunchalarni tarkib topdirish	

	<p>Fermer xo'jaligi mehnatkashlarining ishi xaqida hikoya</p>	<p>Bolalarda bahorda fermer ho'jaligi ishchilarning mehnati (yer haydash, paxta, bug'doy ekish parnik xo'jaligida sifatli ko'chat (nihol))lar yetkazish, dala maydoniga o'tqazish, ularni parvarish qilish ko'chat atrofini yumshatish, suv quyish - bunda mashinalardan foydalanish; fermer xo'jaligining asalarichilik, baliqchilik, mo'ynachilik, qishloq xo'jaligi maxsulotlarini qayta ishlash kabi tarmoqli xo'jaliklarga aylanib borayotganligi; iqtisod, jismoniy va aqliy mehnatning o'zaro bog'liqligi.</p>	
	<p>Pul to'grisida suhbat</p>	<p>Maktabga tayyorlov guruhi bolalarini milliy valyutamiz – O'zbekiston so'mi, pullarning ranggi orqali bir – biridan hamda kichikligini farqlashga o'rgatish, pullarda nimalar tasvirlangaligini bilishga erishish; eng katta pul 10 ming so'm, 5 minglik, eng kichik pul bir so'mlik hisoblanadi. Hozir muomalada: 1, 3, 5, 10, 25, 50, 100, 200, 500, 1000, 5000 va 10000 lik pullar oldi – sotti vositasi qo'llanilmoqda. 50, 200, 5000, so'mlik pullar ko'k rangda 500 so'mlik pul qizil rangda.</p> <p>Metall tangga – chaqalar va qog'oz pullar zarb etilganligiga qadar savdoda masalliq pullar (guruch, bug'doy, mayiz,</p>	

		<p>qurtob, qattiq non bo'laklari, tuz, choy va b.q.) dan foydalanilgan.</p> <p>Ingiliz pazandachisi Jonaton Kerr ingiliz alifbosidagi harflarga o'xshagan pechenelar ijod qilib, shu pechenelar odamlarni harf tanishga o'rgatishiga erishganligi tufayli ushbu pechenelarga talab oshib ketgan, u 500 tonna alfavit pecheni tayyorlab sotgan va boyib ketgan.</p>	
	<p>Fabrikaga sayohat o'yini</p>	<p>Sayohat (o'yin)ni o'tkazish uchun zarur jhozlar: kiyim – kechaklar, yorliqlar, rasmlar, qalamlar, qog'ozlar, rasmlilik kartochkalar.</p> <p>Ushbu sayohat o'yini orqali bolalar fabrika (do'kon yoki firma yoki fermer xo'jaligini va h.k.)ni boshqarish haqida bilim egallaydilar; tayyorlangan maxsulotlarni sifatli va sifatsizga ajratishni o'rganadilar, ularga sarflangan xarajatlar, narx, vaqt xaqida tushunchlarni egallaydilar, fabrika yorli'gi (belgisi) bilan tanishadilar. O'yin davomida fabrikaning bo'lim boshliqlari va derektori ishtirok etadi. Qizlar o'tirib qug'irchoqlarga kuylak tikadilar. Bo'lim bo'shlig'i qizlarning bajarayotgan ishlarini ko'rib ularni sifatli va sifatsizga ajratadi. Qancha kuylak tikishiga qarab har biriga maosh ajratadi, berilgan va tikilgan buyumlar boshqa –</p>	

		boshqa joyga qo'ydilar tayyorlariga fabrika nomi yozilgan yoqliqlar qo'yib tikiladi va sotish uchun bog'cha bozoriga chiqaradilar. Qancha ko'p va tez sotilsa, ishchilar shuncha ko'p mukofot oladilar.	
--	--	---	--

Ikkinchi bob bo'yicha xulosa

Maktabgacha ta'lim muassalari uchun keying yillarda tuzilgan dasturlar, qo'llanma, ishlanmalarni maktabga tayyorlov bolalarida iqtisodiy tasavvur va tushunchalarni shakllantirish nuqtai nazaridan taxlil qilindi.

Bolalar bog'chalari uchun "Uchunchi ming yillikning bolasi" tayanch dasturi (2000 yil va ushbu dastur asosida yaratilgan o'quv qo'llanmasi (2000 yil hamda 2010 yilda qabul qilingan "Bolajon" tayanch dasturi va "Bolajon" tayanch dasturining o'quv qo'llanmasinin ijobiy tomonari va kamchiliklari taxlil etildi.

O'tkazilgan taxlillarning ko'rsatishicha yuqorida bayon qilingan o'quv mashg'ulotlarning me'yoriy xujjatlarida maktabga tayyorlov guruhi bolalarini iqtisodiy tasavvur va tushunchalar bilan qurollantirish to'g'risida evosita ko'rsatma berilmagan.

Ammo, mazkur dasturlarda masalan "Bolajon" da kasb – hunarga oid (uchuvchi, shifokor, misgar,...), qurulish va qishloq xo'jaligida foydalaniladigan mashinalar, transport va h.k. bilimlarni kengaytirish ko'rsatilganini, tarbiyachi – pedagog ulardan foydalanib 6-7 yoshli bolalarda iqtisodiy iqtisodiy tasavvur va tushunchalarni tarkib topdirishi mumkin.

Shuningdek "Bolajon" tayanch dasturining "Lug'atni faollashtirish" maqsadida buyumlarning xossalari, masalan, shisha idish, yupqa, tiniq, mo'rt, tez sinishi bilan bolalarni tanishtirish barobarida MTM tarbiyachi pedagogi bolalarga shisha idishi inson extiyojini qondiradigan "Maxsulot"ning bir turi ekanligi tushuntirishi lozim. Biroq o'tkazilgan kuzatishlar natijalari shundan dalolat beradiki, ayrim bog'cha tarbiyachilari yuqorida ko'rsatilgan potensial imkoniyatlardan to'la qonli fodalana olmaydilar.

Bois mazkur bobda 6-7 yoshli bolalar tayanch dasturidagi “Nutq o’stirish”, “Lug’at tuzish”, “Applikasia”, “Qurish – yasash mexnati”, “Loy ishi” kabi mashg’ulotlarning maktabga tayyorlov guruhleri bolalarida iqtisodiy tasavvur va tushunchalarni tarkib topdirish bo’yicha ishlanmalar ishlab chiqildi. Masalan, nutq o’stirish mashg’ulotida MTM tarbiyachi – pedagogi undosh tovushlar xaqida so’z yurutganda “X” xarf bilan aytiladigan tovushiga xomashyo, xaridor, xisob – kitobli bo’lish.

O’z- o’zidan ravshanki maktabga tayyorlov guruhi bolalarida iqtisodiy tasavvur va tushunchalarni shakllantirishda birgina mujassam mashg’ulotlarni yetarli deb bo’lmaydi. Shu bois magistrlik dissertasiyasini bajarish jarayonida ekskursiya, o’yin, sayr, suhbat, uchrashuv kabi mashg’ulotlarning bu sohadagi imkoniyatlardan foydalanildi. Masalan, maktabga tayyorlov guruhi bolalarini sandiqsoz usta Xotam bobo Mardonov bilan bo’lgan uchrashuvida bolalar sifatli va jozibali sandiq tayyorlashda ish joyini to’g’ri tashkil eitsh, mehnat qurollarini ishchi xolatda saqlash xamda ularni ustaga qulay qilib joylashtirish, mehnat operasialarini xatosiz bajarish, xomashyo materiallardan tejimli foydalanish, maxsulotni arzon, xaridorgir qilib tayyorlash ustida tinimsiz ishlash zarurligi kabi iqtisodiy tushunchallarni bilib oldilar.

III.Bob. MTM tayyorlov guruhi bolalarida iqtisodiy tasavvur va tushunchalarni tarkib toptirish bo’yicha ilmiy-tadqiqot ishlarni tajribada sinash

3.1.- . Ilmiy-tadqiqot ishchi dasturi va metodikasini ishlab chiqish

Pedagogik tadqiqotlarga bag’ishlab yozilgan adabiyotlarda pedagogik eksperement o’tkazishni qayd qiluvchi, tekshiruvchi va shakllantiruvchi bosqichlari qayd qilingan. Magistrlik dissertasiyamiz bo’yicha 2015-2017 o’quv yillari davomida o’tkazilgan tadqiqotlarda qayd qiluvchi va shakllantiruvchi tajriba va sinov ishlari amalga oshirildi.

Shakllantiruvchi eksperimentni amalga oshirish “Bolajon” tayanch dasturi va u asosida shakllantirilgan metodik qoʻllanmalar mazmuni ularda iqtisodiy tushunchalarnin singdirish nuqtai nazaridan taxlil qilindi. Bu esa bizga 2015-2017 oʻquv yillari davomida amalga oshirilishi lozim boʻlgan eksperimental dasturini belgilab olishga imkon berdi. (1-jadval, 2-, 3- boʻlimlar)

Kirish bosqichi 1 - jadval

/r	Faoliyat turi	Muddati	Tadqiqot metodlari
	2	3	4
	Tadqiqotning dolzarbligi, muammoliligini aniqlash	2015 – 2016 oʻquv yili, yanvar – fevral oylari	Ilmiy pedagogik, psixologik, falsafiy, maʼnaviy, ijtimoiy adabiyotlarni oʻrganish
	Tadqiqotning mavzusini aniqlash. Mavzuga asosnoma – reja tuzish.	2015-2016 oʻquv yili. mart	
	Tajriba – sinov dasturi va metodikasini ishlab chiqish.	2015 – 2016 oʻquv yili, mart – aprel oylari	Ilgʻor pedagogik tajribalari, bolalar bogʻchalari tarbiyachi – pedagoglarning faoliyatlarini oʻrganish va ommalashtirish.
	Tajriba – sinov obyekti va maydonchalarini belgilab olish.	2015 – 2016 oʻquv yili, aprel	Samarqand sh. № 62-MTM

1 Oʻrganuvchi tasdiqlovchi bosqich

	2	3	4
	MTMda maktabga tayyorlov guruhi bolalarida iqtisodiy tasavvur va tushunchalarni shakllanganlik holatini oʻrganish	2015 – 2016 oʻquv yili, noyabr - dekabr	Meyoriy hujjatlar, oʻquv uslubiy qoʻllanma, ishlanmalarini oʻrganish
	MTM tarbiyachi – pedagoglar jamosining iqtisodiy taʼlim va tarbiyaga oid uslubiy	2015 – 2016 oʻquv yili, oktabr – noyabr- dekabr	MTMga tegishli arxiv va joriy hujjatlarni oʻrganish

	tavsiya, ishlanma va boshqa bo'lgan ehtiyojini o'rganish		
	MTM tarbiyachi - pedagoglarning maktabga tayyorlov guruhi bolalarida iqtisodiy tasavvur va tushunchalarni shakllantirishga munosabatini o'rganish	2015 – 2016 o'quv yili, oktabr – noyabr- dekabr	Mavzu bo'yicha pedagogik, psixologik, metodik adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish
	MTM tarbiyachi – pedagoglari va maktabga tayyorlov guruhi bolalari uchun iqtisodga doir anketa - so'rovnomalar, mashg'ulotlar ishlanma, didaktik materiallar tayyorlash	2015 – 2016 o'quv yili davomida	MTM ta'lim – tarbiya jarayonida shaxsan ishtirok etish
	MTM maktabga tayyorlov guruhi bolalari bilan mashg'ulotlar va ekskursiya, o'yin, ertaliklar o'tkazish maqsadida tayyorgarlik ko'rish va ularni o'tkazish	2015 – 2016 o'quv yili, noyabr – yanvar oylari	Kuzatish, savol – javob, so'rovnomalar o'tkazish

2 Ta'limiy – shakllantiruvchi bosqich

	2	3	4
0	Tajriba maydonchalari, nazorat va tajriba – sinov guruhlarini aniqlash, iqtisodga doir ishlanmalar tayyorlash, ta'minlash	2015 – 2016 o'quv yili, noyabr- dekabr oylari	Tajriba sinov ishlarini o'tkazish uchun zarur bo'lgan anketa-so'rovnoma test topshiriqlari, yozma variantklar, iqtisodiy mazmun singdirilgan materiallar bilan ishlash
1	Nazorat va tajriba – sinov guruhlarida kuzatishlar olib borish	2015 – 2016 o'quv yili, dekabr – yanvar oylari	Bolalar bog'chasida ilmiy- tadqiqot metodlarini qo'llash
2	Mujassam mashg'ulotlar, ekskursiya, o'yin,	2015 – 2016 o'quv yili, fevral – mart – aprel oylari	Tajriba –sinov ishlarini olib borish

	maqol va matal, topishmoq va h.k. o'tkazish uchun zarur bo'lgan iqtisodga oid ishlanmalarni sinovdan o'tkazish		
3	Bajarilgan ilmiy – tadqiqotlar natijalari asosida maktabga tayyorlov guruhi bolalarida iqtisodga doir tasavvur va tushunchalarni shakllanganlik darajasini aniqlash	2015 – 2016 o'quv yili, aprel - may	Ilmiy – tadqiqot natijalariga matematik – statistik ishlov berish, bajarilgan ilmiy izlanishning samaradorligini aniqlash

3 Tajribaviy – umumlashtiruvchi (Yakunlovchi) bosqich

	2	3	4
4	Bajarilgan ilmiy – tadqiqot natijalariga matematik – statistik ishlov berish, umumlashtirish hulosalar chiqarish	2015 – 2016 o'quv yili, aprel - may	Tajriba sinov natijalariga ishlov berish
5	Ilmiy – izlanishlar natijalari asosida ilmiy – amaliy kanfrensiyalarda maruzalar bilan chiqish, maqolalar chop ettirish	2015 – 2016 o'quv yili, aprel oyi	Tadqiqot natijalarini taqqoslash, tizimlash, umumlashtirish, dissertatsiya shaklida rasmiylashtirish

Mavzu bo'yicha ilmiy – tadqiqot ishni bajarishda ishlatilgan tajriba sinov materiallari

/R	Materialning nomi	Qayerda qo'llaniladi	Mazmu ni	Disserta siyaga ilova
	“Bolajon” tayanch dasturiga muvofiq “Nutq o'stirish”, “Qurush – yasash mexnati”,	Bolalar bog'chasida	Dars ishlanmalari, ishchi rejalar	2 – bob, 2.1 va 2.2 paragrflar; MTM

	“Applikasiyalar”, “Loy ishi” mashg’ulotlari uchun iqtisodiy mazmundagi dars ishlanmalari			bolalarida iqtisodiy tarbiyani shakllantirish (Uslubiy qo’llanma). (Samarqand 2016.- 50 b.)
	6-7 yoshli guruhichun mo’ljallangan “Bolajon” tayanch dasturida qo’llanilgan “Atrof – muhit”, “Nutq o’stirish”, “Badiiy adabiyotlar bilan tanishtirish”, “Applikasiya”, “Loy ishi”, dasturi asosida ishlab chiqilgan iqtisodga doir ishlanmalar	da	MTM	Mashg’ulot ishlanmalari
	Tayyorlov guruhi bolalariga mo’ljallangan savollar		MTM	So’rovnomalar
	MTM tarbiyachi pedagoglarining iqtisodiy soxa bo’yicha bilim, ko’nikmalarni aniqlash uchun savolnomalar	da	MTM	Savolnomalar

3.2. Tajriba – sinov ishining samaradorligini o’rganish.

Tajriba – sinov ishining shakllantiruvchi uchinchi bosqichi Samarqand shahridagi № 62 sonli MTMda o’tkazildi.

Maktabga tayyorlov guruhi bolalarida iqtisodiy tasavvur va tushunchalar shakllanishi sifatini aniqlash (o’lchash) uchun tegishli ko’rsatkichlar, darajalar, mezonlarni belgiladik.

Davlat ta'lim standartiga binoan, maktabga tayyorlov guruhi bolalari egallashlari lozim bo'lgan tasavvur va tushunchalarning va ularga qo'yilgan davlat talablari dissertasiyamizning 1.3-& da keltirganmiz.

Tayyorlov guruhi bolalarida tabiatga oid tasavvur va tushunchalarni shakllanganligini aniqlash uchun qo'yidagi mezonlarga amal qilindi.

- Iqtisodga qiziqish; mehnat sevarlik; tejamkorlik; tadbirkorlik; vatanparvarlik fazilatlarini. Shu bilan birga bolalar iqtisod mamlakatining o'zi nima ekanligi, uning mohiyati, tuzilishi, o'ziga xos xususiyatlarini ham bilgan, o'zlashtirgan bo'lishlari kerak.

Maktabga tayyorlov guruhi bolalarida iqtisodga doir tasavvur va tushunchalarni shakllanishining ko'rsatkichlari (yo'nalishlari):

Ko'rsatkichlar

1. Vatanimiz – O'zbekistonning taraqqiyoti haqida.
2. O'simliklar va hayvonlar va ulardan olinadigan oziq – ovqat, kiyim – kechak va poyabzal mahsulotlari haqida.
3. Oziq – ovqat va kiyim – kechak mahsulotlarining asosiy turlari haqida.
4. Pul va narx ularning turlari haqida.
5. Qoida va tartibni saqlash haqida.
6. Insonlar extiyoji uchun ishlab chiqariladigan narsalar haqida.

Maktabga tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarida iqtisodga doir tasavvur va tushunchalar shakllanishini aniqlash uchun ko'rsatkichlar asosida quyidagi savolnomani tuzdik (savolnomalar – ilovada keltirilgan). Maktabga tayyorlov guruhi bolalarida tasavvur va tushunchalarni shakllantirishning darajalarini aniqlash maqsadida ko'rsatkich – yo'nalishlariga muvofiq alohida savolnomalar tuzildi (-ilova).

Maktabga tayyorlov guruhi bolalarida iqtisodga doir tasavvur va tushunchalarning uch darajada belgilandi:

Birinchi daraja – Yuqori; ikkinchi daraja – o'rta, uchinchi daraja – quyi.

Endi ularning mazmunini qarashga o'tamiz:

1 **Yuqori darajaga** iqtisod mamlakati haqidagi tasavvur va tushunchalarni o'zlashtirgan; iqtisodning asosiy tushunchalarni ayta oladigan; moddiy olam tarkibiga kirgan maxsulotlar va ularning nomlarini va qanday homashyodan ishlab chiqarilishini bilgan; birinchi, ikkinchi va uchunchi ovqatlar nimalardan tayyorlanishini ayta oladigan; bosh kiyim, poyabzal va kiyim – kechaklar nimalardan tikilishi, to'qilishini va yasalishini bilgan;

2 **O'rta darajaga** iqtisod tushunchalarining xillari haqida umumiy tasavvuri bor, ularning bozor talablariga muvofiq o'zgarishini nisbatan ayta oladigan; oila mulki va unga kiradigan narsalarni farqlash, ulardan samarali foydalanish; mulk, uning shakllari, ularning tarkibini sustroq biladigan; mulkchilikka ta'luqli narsalardan ayrimlarining nomlarini, o'zi yashaydigan uy xonadondagi jihozlari, mollarning ayrimlarini nomlarini biladigan, ularni asrash, tejamkorlik bilan ishlash zarurligi haqida tushunchasi pastroq bolalar kiritildi.

3 **Qo'yi darajaga** iqtisodiy ma'lumotlar haqida tasavvuri xira, tushunchalari chala; insonlarning manaviy va moddiy oзуqaga bo'lgan extiyohlari, ularni qondirilishini qisman ayta oladigan; uy xo'jaligida inson extiyojini qondiradigan asosiy manbalarning ayrimlarini nomlarini ayta oladigan; oila, uni nima uchun kerakligini, oilaning turlarini va unda o'zining burchini bilmaydigan bolalar kiritildi.

Yuqorida takidlanganligidek, biz maktabga tayyorlov guruhi bolalarida iqtisodga oid tasavvur va tushunchalarni shakllantirishning ko'rsatkichlarni aniqlashda tajriba sinov maydoni qilib, Samarqand shahrida joylashgan 62-bog'chasini tanlab oldik. Tajriba – sinov ishlariga 78 nafar MTM tarbiyalanuvchilari jalb qiladigan bo'lsa, nazorat guruhlarida 73 bola jalb etildi.

Maktabga tayyorlov guruhi bolalari bilan o'tkazilgan savol javoblar natijalari qo'yidagi jadvalda keltirildi.

U	J	K	To'liq	O'rta	Quyi
amaliy	amaliy	o'rsatki			

TG	52		Tajriba-gacha		Tajribadan so'ng		Tajribaga-cha		Tajribadan so'ng		Tajriba-gacha		Tajribadan so'ng	
			son	foiz	son	foiz	son	foiz	son	foiz	son	foiz	son	foiz
		1	7	13,4	18	34,6	20	50	22	42,5	19	36,5	12	23
		2	8	15,5	15	28,8	22	42,3	19	36,5	22	42,3	18	34,6
		3	14	26,9	20	38,4	17	32,6	19	36,5	21	40,3	13	25
		4	15	28,8	21	40,3	21	40,3	17	32,6	16	30,7	14	26,9
		5	9	17,3	16	30,7	19	36,5	22	42,3	24	46,1	14	26,9
		6	8	30,7	21	40,3	15	28,8	17	32,6	21	40,3	14	25
NG	49	1	4	8,1	5	10,2	21	42,8	24	48,5	24	48,9	20	40,8
		2	6	12,2	8	16,3	19	38,7	22	44,8	24	48,9	19	38,7
		3	11	22,4	15	30,6	15	30,6	18	36,7	23	46,9	11	22,4
		4	13	26,5	15	30,6	18	36,7	20	40,8	18	36,7	14	28,5
		5	7	14,2	10	20,4	13	26,5	17	34,6	29	59,1	32	65,3
		6	5	10,2	9	18,3	15	30,6	19	38,7	29	59,1	7	34,6

Yuqorida keltirilgan jadvalning tahlilidan ko'rinadiki, maktabga tayyorlov tajriba va nazorat guruhi bolalarida iqtisodga oid tasavvur va tushunchalar shakllanishi (o'sishi)da quyidagilar sodir bo'lgani namoyon qilindi.

1. Pul va uning qanday turlarini bilasiz?

“Pul birliklari nima? Qanday masaliq pullarni bilasiz?” savollariga tajriba guruhlaridagi 78 nafar boladan tajribadan so'ng 34,6 foizi to'liq, 42,3 foizi o'rta, 23 foizi quyi darajada javob bergan bo'lsalar; nazorat guruhlarida esa 69 boladan tajribadan so'ng 10,2 foizi – to'liq, 48,9 foizi – o'rta 40,8 foizi – quyi darajada javob berishdi.

2. Xomashyo (material) to'g'risida nimalarni bilasiz? Degan savollarga tajribadan so'ng tajriba guruhi bolalaridan 28,8 foizi – to'liq, 36,5 foizi – o'rta, 34,6 foizi- quyi darajada va nazorat guruhlarida esa 16,3 foizi- to'liq, 44,8 foizi – o'rta, 38,7 foizi quyi darajada javob berishdi.

3. Oziq – ovqat maxsulotlariga qaysi taomlar kiradi degan savolga tajriba guruhi bolalaridan 38,4 foizi - to'liq, 36,5 foizi – o'rta, 25 foizi – quyi darajada javob bergan; nazorat guruhlarida esa, 30,6 foizi – to'liq, 36,7 foizi – o'rta, 22,4 foizi – quyi darajada javob berishdi.

4. Tejamkorlik nima? Degan savolga tajriba – guruhlardan 40,3 foizi, 32,6 foizi – o'rta, 26,9 foizi – quyi darajada va nazorat guruhlarida esa, 30,6 foizi – to'liq, 40,8 foizi – o'rta, 28,5 foizi – quyi darajada javob berishdi.

Uchinchi bob bo'yicha xulosa

Pedagogik tadqiqotlarga bag'ishlab yozilgan adabiyotlarda pedagogik eksperiment o'tkazishni qayd qiluvchi, tekshiruvchi va shakllantiruvchi bosqichlari qayd qilingan. Magistrlik dissertasiamiz bo'yicha 2015-2017 o'quv yillari davomida o'tkazilgan tadqiqotlarda qayd qiluvchi va shakllantiruvchi tajriba va sinov ishlari amalga oshirildi. Shakllantiruvchi eksperimentni amalga oshirish "Bolajon" tayanch dasturi va u asosida shakllantirilgan metodik qo'llanmalar mazmuni ularda iqtisodiy tushunchalarnin singdirish nuqtai nazaridan taxlil qilindi. Bu esa bizga 2015-2017 o'quv yillari davomida amalga oshirilishi lozim bo'lgan eksperimental dasturini belgilab olishga imkon berdi.

Maktabga tayyorlov guruhi bolalarida iqtisodiy tasavvur va tushunchalar shakllanishi sifatini aniqlash (o'lchash) uchun tegishli ko'rsatkichlar, darajalar, mezonlarni belgilandi. yuqori darajaga iqtisod mamlakati haqidagi tasavvur va tushunchalarni o'zlashtirigan; iqtisodning asosiy tushunchalarni ayta oladigan; moddiy olam tarkibiga kirgan maxsulotlar va ularning nomlarini va qanday homashyodan ishlab chiqarilishini bilgan; birinchi, ikkinchi va uchunchi ovqatlar nimalardan tayyorlanishini ayta oladigan; bosh kiyim, poyabzal va kiyim – kechaklar nimalardan tikilishi, to'qilishini va yasalishini bilgan; o'rta darajaga iqtisod tushunchalarining xillari haqida umumiy tasavvuri bor, ularning bozor talablariga muvofiq o'zgarishini nisbatan ayta oladigan; oila mulki va unga kiradigan narsalarni farqlash, ulardan samarali foydalanish; mulk, uning shakllari, ularning tarkibini sustroq biladigan; mulkchilikka ta'luqli narsalardan

ayrimlarining nomlarini, o'zi yashaydigan uy xonadondagi jihozlari, mollarining ayrimlarini nomlarini biladigan, ularni asrash, tejamkorlik bilan ishlash zarurligi haqida tushunchasi pastroq bolalar kiritildi. qo'yi darajaga iqtosodiy ma'lumotlar haqida tasavvuri xira, tushunchalari chala; insonlarning manaviy va moddiy ozuqaga bo'lgan extiyohlari, ularni qondirilishini qisman ayta oladigan; uy xo'jaligida inson extiyojini qondiradigan asosiy manbalarning ayrimlarini nomlarini ayta oladigan; oila, uni nima uchun kerakligini, oilaning turlarini va unda o'zining burchini bilmaydigan bolalar kiritildi.

Umumiy xulosa va tavsiyalar

Mazkur magistrlik dissertasiyasida bajarilgan ilmiy – tadqiqot natijalariga asoslanib qo'yidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

1. Maktabgacha ta'lim muassasalarida maktabga tayyorlov guruhi bolalarida iqtisodiy tasavvur va tushunchalarning shakllanganlik darajasini o'rganish shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda ular bu sohadagi iqtisodiy tasavvur va tushunchalari bugungi kun talabiga javob bera olmaydi. “Uch ming yillik bolasi” tayanch dasturi (2000), “Bolajon” tayanch dasturi (2010) xamda ular asosida tayyorlangan o'quv qo'llanmalarda maktabga tayyorlov guruhi bolalarida iqtisodiy tasavvur va tushunchalarni muntazam ravishda shakllantirishga oid ko'rsatma, yo'l – yuriqlar berilmagan.

2. Amalga oshirilgan izlanishlarimiz tufayli “Bolajo” tayanch dasturi asosida MTM “Nutq o'stirish”, “Lug'at tuzish”, “Applikasia”, “Qurish – yasash mexnati”, “Loy ishi” kabi mashg'ulotlarning mazmunida tayyorlov guruhlar bolalari ongi, sho'o'rida iqtisodiy tasavvur va tushunchalarni shakllantirish imkoniyatlari aniq misollarda ko'rsatib berildi.

3. MTM tayyorlov guruhi bolalarida iqtisodiy tasavvur va tushunchalarni tarkib topdirishda mujassam mashg'ulotlar o'tkazish bilan bir qatorda ekskursiya, o'yin, suhbat, uchrashuv kabi ta'lim shakllari va vositalaridan keng foydalanish imkoniyatlari tadqiqotlar jarayonida aniq materiallarda ko'rsatib berildi.

4. Tajriba – sinov ishlari natijalari ushbu dissertsiada qabul qilgan ilmiy farazimizni asosli ekanligini isbotlab berdi.

O'tkazilgan tadqiqotlarga asoslanib, quyidagi tavsiyalarni ishlab chiqishga imkon beradi:

1. Maktabga tayyorlov guruhlarida o'tkaziladigan mujassam mashg'ulotlar jarayonida radio, televideniya, gazetalarda tilga olingan yangi

iqtisodiy atamalarning mazmun – mohiyatini muntazam ravishda sharhlab berishishga erishish.

2. Tayyorlov guruhi bolalari bilan o'tkaziladigan mashg'ulotlar mazmuniga iqtisodga oid tushunchalarni singdirib borish.

3. Tayyorlov guruhi bolalarini iqtisodiy tushunchalar bilan muloqot qilish maqsadida iqtisodiy mazmundagi o'yinlarni o'tkazishga e'tiborni kuchaytirish.

4. MTM xududi atrofidagi korxonalar, tadbirkorlar, kasabachilarning iqtisodiy taraqqiyoti haqida tayyorlov guruhi bolalarida aniq va tasavvur va tushunchalar hosil qilish maqsadida ularni turli ko'rgazmali vositalar tayyorlashga jalb qilish: va h.k.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni //Barkamol avlod - O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: SHarq, 1998. –B.20-29.
2. O‘zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" Qonuni //Barkamol avlod - O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: SHarq, 1998. – B.32-61.
3. O‘zbekiston Respublikasining uzluksiz iqtisodiy ta'lim-tarbiya. Konsepsiyasi //Ma'rifat gazetasi, 1996-yil 17-avgust.
4. Karimov I. "O‘zbekiston iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlari" –T.: O‘zbekiston, 1993.
5. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo‘lida. -T.4. -T.: «O‘zbekiston», 1996. -351 B.
6. Karimov I.A. Inson manfaatlari ustuvorligini ta'minlash – barcha islohot va o‘zgarishlarimizning bosh maqsadidir. - «O‘zbekiston ovozi» gazetasi, 2008, 9 fevral.
7. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - engilmas kuch – T.:Ma'naviyat, 2008. -174 b.
8. Abdalimov M., Karimov B. Iqtisod alifbosi. -T.: 1997. -27 b.
9. Abdulla Avloniy Turkiy guliston yohud ahloq. -T.: 1979. -267 b.
10. Abu Rayxon Beruniy Geodeziya.Tanlangan asarlar. II jild. –T.: 1966.
11. Alisher Navoiy Maxbub ul qulub.-T., Adabiyot va san'at,1983.
12. Amir Temur o‘g‘itlari. -T.: Navro‘z, 1992. -64 b.
13. Boboqulov S. O‘quvchilarda iqtisodiy savodxonlikni shakllantirish metodikasi. - T., 2005. -21 b.
14. "Bolajan" tayanch dasturi. - T., 2010. -198 b.

15. Valieva Z. va b.q. Boshlang'ich sinflarda iqtisod alifbosi maxsus integratsiya qilingan fan jarayonida iqtisodiy bilim va ko'nikmalarni shakllantirish.-T.: XTB, RTM, 1996
16. Valieva Z; Muhibov Yo. Iqtisod alifbosi. Boshlang'ich maktab 2-sinf uchun o'quv qo'llanma. -T.: Sharq, 1996.
17. Vahobov A. Xonadon va iqtisod // Fan va turmush j., 2000.
18. Juraev D. Tejamkorlik hasislik emas // Boshlang'ich ta'lim jarayoni uzluksizligini ta'minlashda fanlararo aloqadorlik //Uzluksiz ta'lim j., 2007, 5-son. –B.17-22.
19. Imom Ismoil al-Buxariy. Al-Jome'i as-saxix. –T.:O'zbekiston.1991.
20. Ishmurodova G. O'quvchilarga iqtisodiy bilimlar berishda ishchan o'yinardan foydalanish// O'zluksiz ta'lim j., 2007, -6-son. –B.62-66.
21. Kaykovus. Qobusnoma. –Toshkent: “O'qituvchi”. 2006. -208 b.
22. Kamolova N.Q. O'quvchi – yoshlarda iqtisodiy bilim va ko'nikmalarni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari. ped. fan. nom. diss. avtor.-T., 2005. –20 b.
23. Maxmud Qoshg'ariy Devonu lug'atit turk. 3jildlik.-T.:1960.
24. Nabiev G'. Oilada o'smir o'quvchilarni iqtisodiy munosabatlarini tashkil etishga tayyorlash // Maktabgacha ta'limda yangi pedagogik va axborot texnologiyalarni tadbiq etishning dolzarb masalalari (Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari). -Qarshi, 2010. –B. 272-275.
25. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. –T., 1983. -111 b.
26. Raimova M., Qosimov J. Maktabgacha yoshdagi bolalarda boshlang'ich iqtisodiy ko'nikmalarni rivojlantirish //Maktabgacha ta'limda yangi pedagogik va axborot texnologiyalarni tadbiq etishning dolzarb masalalari (Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari). -Qarshi, 2010. –B. 239-241.
27. Sobirova F., Toshquzieva A. Bolalar bog'chasida ilk iqtisodiy ta'lim-tarbiya dasturi. –T., 1996.
28. Sobirov B.B. O'quvchilarda iqtisodiy tushunchalarni shakllantirishda innavotsion usullardan foydalanishning pedagogik asoslari. -T., 2004. -13 b.

29. Sobirov B. O'quvchilarda iqtisodiy tushunchalarni shakllantirishning nazariy jihatlarini // Xalq ta'limi jurnali, 2004, 2-son. –B.105-109.
30. Sobirov B. O'quvchilarda iqtisodiy madaniyatni shakllantirishning uzluksizligini ta'minlash yo'llari. //Xalq ta'limi jurnali. 2004, 4-son.
31. Tarbiya ota-onalar va murabbiylar uchun ensiklopediya. Tuzuvchi: M.I.Amanov. -T.: O'zbekiston. Milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti, 2010. -528 b.
32. To'raev Yu. O'rta umumiy ta'lim maktabida iqtisodiy ta'lim mazmunini asoslash nazariyasi va amaliyoti. Ped.fan. dok. ilmiy darajasini olish bo'yicha diss. Avtoreferati. -M., 1992.
33. Toshpo'latova SH. Maktabgacha yoshdagi bolalar faoliyat o'yining roli//Halqta'limi j., 2004, № 5. -B.63-66.
34. Umarova X. Iqtisodiy bilimlarni turli o'quv fanlari tarkibida interaktiv tarzda taqdim etish //Xalq ta'limi j., 2008, 1-son. –B. 45-48.
35. Umarova X. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida iqtisodiy ta'lim jarayoni uzluksizligini ta'minlashda fanlararo aloqadorlik //Uzluksiz ta'lim j., 2007. 5-son. – B.17-22.
36. Fayzulaloeva G, SHodiev N. Iqtisodiy tarbiyada pedagogik asoslarning mohiyati //Iqtisodiy munosabatlarni o'rganishda iqtisodiy atamalardan to'g'ri foydalanish zarurati va muammolari. –T.: G'.G'ulom nashri 1989, -512 b.
37. "Uchinchi ming yillik bolasi" tayanch dasturi. -T.: 1995.
38. SHodiev N., Doniev B. Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarga kasb-hunarlar haqida tushunchalarni shakllantirish //Uslubiy qo'llanma.- Samarqand, 2014. -54 b.
39. Shodiev N., Doniev B., Fayzieva SH. Maktabgacha yoshdagi bolalarda o'ymakorlik kasbi bo'yicha tasavvurlarni rivojlantirish (mashg'ulot ishlanmasi) //Ta'lim va texnologiya. (Ilmiy-uslubiy maqolalar to'plami). -T., 2014. –B. 186-189.
40. Erkaboeva N.SH. Maktabgacha yoshdagi bolalarga iqtisodiy ta'lim-tarbiya berish yo'llari. //Uslubiy qo'llanma. –Farg'ona, 2002. -47 b.

41. Erkaboeva N. Iqtisodiy tarbiyani erta boshlash kerak //Boshlang'ich ta'lim jur. T.: 1999, 3- son.
42. Yuz bir hadis. -T.: Mehnat, 1991. -38 b.
43. Qur'oni Karim. Tarjima va izohlar. Muallifi Alouddin Mansur. -T.: CHulpon, 1992. -544 b.
44. Qushoqova G. Usmonova M. Tayyorlov guruhi bolalarini sog'lomlashtirishda milliy o'yinlardan foydalanish //Uzluksiz talim jur. 2007. 5-son. -B.23-29.
45. Yusuf Xos Xojib Qutadg'u bilig.-T., Yulduzcha, 1990.
46. Xudoyqulov X. J. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalashda iqtisodga oid tushunchalarni shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari. -T., Fan, 2004-212 b.

Ilovalar

1- Ilovalar

“Ilk iqtisodiy ta’lim – tarbiya” dasturiga binoan maktabga tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarining iqtisodga doir tasavvur va tushunchlarni aniqlash.

Ko’rsatkichlar

7. Vatanimiz – O’zbekistonning taraqqiyoti haqida.
8. O’simliklar va hayvonlar va ulardan olinadigan oziq – ovqat, kiyim – kechak va poyabzal mahsulotlari haqida.
9. Oziq – ovqat va kiyim – kechak mahsulotlarining asosiy turlari haqida.
10. Pul va narx ularning turlari haqida.
11. Qoida va tartibni saqlash haqida.
12. Insonlar extiyoji uchun ishlab chiqariladigan narsalar haqida.

2- Ilova

Maktabga tayyorlov guruhi bolalarida iqtisodga oid tasavvur va tushunchalarshakllanishini aniqlash uchun

Savolnoma

- 1.1. Pul va uning qanday turlarini bilasiz?
- 1.2. Pul birliklari nima?
- 1.3. Qadimda masalliq pul vazifasini o'taganmi? Qanday masalliq turlarini bilasiz?
- 1.4. Bozor so'zning ma'nosi nima?. Do'kon bozordan farq qiladimi?
- 1.5. Tumaningizda qanday bozorlar bor?
- II.1. Xomashyo (material) to'g'risida nimalarni bilasiz?
- II.2. Xomashyo turlari
- II.3. Osimlik va hayvonlardan olinadigan xomashyo
- II.4. Sun'iy homashyoga qanday ashyo kiradi
- II.5. Oziq – ovqat mahsulotlari qaysi homashyodan ishlab chiqariladi?
- III.1. Oziq – ovqat mahsulotlariga qaysi taomlar kiradi?
- III.2. Birinchi, ikkinchi va uchunchi ovqatlar nimalardan tayyorlanadi
- III.3. Non, pecheni, navvotning tayyorlanishi nimalardan iborat?
- III.4. Oziq – ovqat tularining xilma- xilligi inson hayotidagi ahamiyati
- III.5. Sizning bog'changizda oziq – ovqat mahsulotlarini tejashni foydasi nimada?
- IV.1. Tejamkorlik nima?
- IV.2. Bog'cha oshxonasida tejamkorlik
- IV.3. Oilada tejamkorlik
- IV.4. Tomorqada tejamkorlik
- IV.5. Bog'cha kabinetida tejamkorlik

